

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 52 (1113), 2024-yil 13-mart, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## TADBIRKORLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA EKSPORTGA JALB ETISH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQLDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-mart kuni tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish va eksportga jalb etish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.**

Bu haqda davlatimiz rahbari 2023-yil 18-dekabrda bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida aytgan edi. Shundan so'ng ekspertlar ishtirokida tadbirkorlarning takliflari asosida yangi yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tahlillarga ko'ra, o'tgan yili eksportchi korxonalariga 665 milliard so'mlik yordam ko'rsatilib, 3 milliard 200 million dollarlik eksport ta'minlangan. Lekin ayrim tarmoq va hududlarda bu mablag'lardan samarali foydalanilmagan. Elektr texnikasi, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, zargarlik tarmoqlarida eksport o'rtacha ko'rsatkichlarga yetmagan. Uyushmalar tomonidan 2 ming 709 ta salohiyatli eksportchilar qamrab olinmagan, ularga haligacha biror yordam ko'rsatilmagan.

Shu bois, hududlarda ishlab chiqarish, sanoat zonalari va eksport masalalarini yaxlit tizimda birlashtirish maqsad qilinmoqda. 12 ta tarmoq va sanoat uyushmasini Savdo-sanoat palatasi tizimiga o'tkazish taklif etilmoqda. Bu orqali loyiha tayyorlash va eksport tizimi davlatdan tadbirkorlar o'zini o'zi boshqaradigan tashkilotga o'tadi. Natijada ularning talab va istaklarini eshitish, muammolarini hal qilish osonlashadi, tadbirkorlarning o'zaro hamkorligi kuchayadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, sohadagi agentlik va jamg'armalar o'rni

Savdoni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etiladi. U chet eldan malakali dizayner, texnolog va marketinglarni jalb etib, milliy mahsulotlarni xalqaro talablarga moslashtirish, eksportchilarning yangi bozorlarga chiqishiga ko'maklashish, milliy brendlarni xorijda targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. Bu kompaniya tomonidan subsidiya, kompensatsiya va boshqa ko'maklar tadbirkorlarning barqarorlik reytingi asosida ajratiladi.

Shuningdek, "O'zbekexpertzita" aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan aloqalari kuchaytiriladi. Barcha tumanda Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash loyiha ofislari ish boshlaydi.

Prezidentimiz iqtisodiy islohotlardan asosiy maqsad tadbirkorlikni rivojlantirish ekanini ta'kidlab, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

Uyushmalarining vazifa va natijadorligini ko'rib chiqish, rahbar va xodimlar malakasini oshirish muhimligi qayd etildi. Asosiy ishni hududlarda tashkil etib, yangi loyihalar ishlab chiqish, tadbirkorlarni eksportga jalb qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mutasaddilar bu yil mahalliy sanoat eksporti hajmini 12 milliard dollarga yetkazish rejalarini to'g'risida axborot berdi.

O'ZA

## UY-JOYLAR QURILISHI SOHASIDAGI VAZIFALAR BELGILANDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-mart kuni joriy yilda uy-joylar hamda "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.**

Xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida barcha hududlarda yangi uy-joylar barpo etilmoqda. Shu bilan birga, odamlarning xarid imkoniyatini kengaytirish uchun to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Unga muvofiq, o'tgan davrda barcha manbalardan 100 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Bularning hisobiga hududlarda 6 mingta ko'p qavatli uy barpo etilib, 250 ming oila yangi boshpanali bo'ldi. Daromadi yuqori bo'lmagan 45 mingta oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovi uchun 2,4 trillion so'mlik subsidiyalari berildi.

Jumladan, o'tgan yili mamlakatimiz bo'yicha 85 mingta yoki 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'p xonadon qurildi. Aholiga 17 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi.

Aholi sonining o'sishini inobatga olib, bunday ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, joriy yilgi dastur doirasida 100 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan.

Yig'ilishda shu boradagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Avvalo, yangi uylarning sotuv narxi va sifatiga e'tibor qaratilib, nomutanosibliklar ko'rsatib o'tildi. Mutasaddilarga qurilish tannarxini pasaytirish va uylar sifatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi. Shu maqsadda taklifni ko'paytirish uchun ko'p qavatli uy-joylar qurilishiga qo'shimcha yerlar auksionga chiqarilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari bu sohada aholi va quruvchilar uchun qator yangi imkoniyatlar berilishini ma'lum qildi.

Bu yil ipotekani moliyalashtirish uchun barcha manbalardan 22,5 trillion so'm yo'naltirildi. Jumladan, ipoteka kreditlari uchun qariyb 10 trillion so'm, daromadi

yuqori bo'lmagan 20 ming oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovini qoplash uchun 2,3 trillion so'm beriladi.

Pudrat tashkilotlarining aylanma mablag'ini ko'paytirish uchun 500 milliard so'm resurs yo'naltiriladi. Bunda yillik 16 foiz stavkada 12 oylik imtiyozli davr bilan 18 oyga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Bu maqsadlarga banklar ham o'z mablag'larini kiritadi.

Qurilish ishlari hamda aholining uy-joy sotib olishi uchun ham qo'shimcha yengilliklar yaratiladi. Xususan, endi 9 qavatli uylarni barpo etishga kamida "qoniqarli" va 9 qavatli uylarga "o'rt qoniqarli" reytingiga ega bo'lgan pudratchilar jalb qilinadi. Bu qo'shimcha 2 mingga yaqin pudratchiga yo'l ochib beradi.

Turar joylar qurilishida "yashil" standart joriy qilinadi. U asosida bunyod etiladigan uy uchun pudratchilarga kreditlar bir foiz past, ya'ni yillik 15 foiz stavkada beriladi.

Pudratchilarga kreditlar bo'yicha kafillik berish va foiz xarajatini qisman qoplashga Tadbirkorlik kompaniyasi tomonidan 200 milliard so'm yo'naltiriladi. Uy qurilishi uchun maxsus texnikalar importi bo'yicha berilgan bojxona imtiyozlari yana bir yilga uzaytiriladi.

Bundan buyon ipoteka kreditlari bo'yicha garovga olinadigan uyni sug'urtalash talabi bekor qilinadi.

Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kirgan va turar joyi nochor ahvoldagi oilalarga, "mahalla yetiligi" tavsifasi asosida, o'z hovlisida uy qurish va ta'mirlashga 120 million so'mgacha ipoteka krediti ajratish yo'lga qo'yiladi. Bunda kreditning 15 foizi va dastlabki besh yilda foiz stavkasining 6 foizgacha bandi budjetdan qoplab beriladi.

Aholiga bu borada ko'maklashishda Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi muhim o'rin tutadi. O'tgan uch yilda uning kredit portfeli 3 trillion so'mdan oshdi. Ushbu kompaniya ustav kapitalini 100 million dollarga yetkazish, xorijiy mablag'lar jalb etishni kengaytirish vazifasi belgilandi.

Yig'ilishda "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda hududlarda 38 ta massiv qurilishi boshlangan. Joriy yilda yana 17 ta massiv bunyod etish ko'zda tutilgan.

Lekin ayrim joylarda kechikish holatlari bor. Masalan, Surxondaryo, Andijon, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida qurilish ishlari ortda qolmoqda.

Shu bois, har bir massiv kesimida manzilli ro'y-xatni tasdiqlab, bunyodkorlik ishlarini jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Davlatimiz rahbari bunda asosiy talablar — sifat, muddat va tannarx ekanini ta'kidladi.

Ayrim noinsof quruvchilar xaridorlar ishonchini suiste'mol qilayotgani qayd etilar ekan, ulushdorlik asosida uy-joy barpo etishda aholini himoya qilish tizimini kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, yer auksionida qatnashadigan qurilish va pudrat tashkilotlarining moliyaviy salohiyatiga minimal talablar joriy qilinishi belgilandi.

Ba'zi hududlardagi eski uylar renovatsiya asosida yangilanib, odamlarga zamonaviy sharoitlar yaratilishi qayd etildi.

Bosh vazir o'rinbosari va viloyat hokimlari qurilish ishlarini tashkil qilish rejalarini yuzasidan axborot berdi.

O'ZA

### Bugunning gapi

## KLASTER TIZIMIDA YANGI BOSQICH U IP-KALAVANI 100 FOIZ QAYTA ISHLAB, QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISHGA QARATILGAN

Davlatimiz rahbari yaqinda Xorazm viloyatiga tashrifi chog'ida "Xiva klaster" paxta-to'qimachilik klasterining yangi korxonasida bo'lib, mazkur klaster misolida sohadagi istiqbolli rejalar bilan tanishar ekan, yangi loyihalar hisobiga paxta yetishtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ko'paytirish bo'yicha o'ta dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

E'tiborlisi, Prezidentimiz to'qimachilik sanoatini taraqqiy ettirish masalasiga Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari yuzasidan bo'lib o'tgan yig'ilishda ham alohida to'xtalib, hududda ip-kalavani qayta ishlash darajasini hozirgi 30 foizdan 60 foizga yetkazish muhimligini ta'kidladi. Buning uchun joriy yilning o'zida viloyatga 280 million AQSH dollari miqdorida investitsiya olib kelish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rsatib o'tildi. Bu paxta-to'qimachilik klasterlari tizimi taraqqiy-

yotida sifat jihatdan yangi bosqichga o'tilayotganidan dalolatdir.

Darhaqiqat, klaster mazmun-mohiyatiga ko'ra, zanjirli ishlab chiqarish tizimi bo'lib, paxta yetishtirishdan to'ndan qo'shimcha qiymat yaratishgacha bo'lgan texnologik jarayonlarni qamrab oladi. Paxta-to'qimachilikda ushbu innovatsion usul tatbiq qilinishidan maqsad, avvalo, chetga xomashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish edi. Qo'yilgan ushbu vazifa klasterlar tomonidan bosqichma-bosqich uddalanmoqda.



Zamonaviy korxonalar qurilib, yangi quvvatlar ishga tushirilishi tufayli juda qisqa vaqt ichida paxta tolasini o'zimizda 100 foiz qayta ishlashga erishildi. Natijada xomashyo eksporti batamom to'xtatildi. Navbatdagi marra esa ip-kalavani qayta ishlashni 100 foizga yetkazishga qaratilgan.

► Davomi 4-beta

### Men nechun sevaman O'zbekistonni!

## NOMUS, VIJDON ILA IYMONDIR — VATAN!

Bundan roppa-rosa 117 yil oldin Abdurauf Fitratning "Yurt qayg'usi" nomli maqolasi matbuotda chop etilgan edi. "Dunyoning butun balolari boshing'a to'kulsu, Zulm cho'lining temir tikonlari ko'zlarimga kirsu, yana seni qutqararman. Men sening uchun tirildim, Sening uchun yasharman, Sening uchun o'lurman. Ey turklikning muqaddas o'chog'i! O'lim sening o'limingni istaganlarga, Nafrat seni ko'mgani kelganlarga!", deya hayqirgan edi erksevar, millatparvar jaded bobomiz ushbu maqolasida.



Poytaxtimizdagi "Turkiston" saroyiga "Vatan manzumi" nomli adabiy-ma'rifiy dasturi tomosha qilish uchun kirib borar ekanmiz, Fitrat bobomizning shu so'zlarini esladik. Vatan so'zi bo'lar-bo'lmasga, ichki bir hayajon va mehr-muhabbatsiz, samimiyaqis takrorlanaversa, bizdan keyingi avlodga bu qutlug' so'zning qanchalar ulug'ligini, muqaddas va ajdodlarimiz yurak qoni bilan sug'orilgan tuyg'ularga tutash ekanini qanday anglatamiz?

"Vatan manzumi" ishtirokchilari ushbu mas'uliyatli vazifani zamonadoshlarimizga anglatadi. O'tgan yili, ayniqsa, O'zbekiston xalq shoirilari Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning yod bo'lib ketgan misralarini boshlovchi bilan baralla aytgan o'g'il-qizlarimizni, Shavkat Rahmonning "Yovga ters qaragan musulmon emas!" degan o'tli misralarini birgalikda takrorlagan askar yigitlarimizni, xonanda Sevara Nazarxon ijrosidagi "Ulug'imisan, Vatanim!" qo'shig'ini jo'r bo'lib kuylagan ishtirokchilarni ko'rib, ko'zlarimizga yosh kelgan, ularni juda-juda yaxshi ko'rib qolgan edik. Ha, bizni jipslashtiradigan, ulug' maqsadlar sari ruhlantiradigan, hammamizni bir mayoq yanglig' atrofida birlashtiradigan qaynoq tuyg'u — VATAN!

► Davomi 6-beta



## KAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT Tashqi siyosat xalqimiz manfaatlariga xizmat qilmoqda

Bugun davlatlar o'rtasidagi do'stlik, tenglik va hamfikrlik har doimgidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Buni xalqaro maydonda yuzaga kelayotgan ziddiyatli holatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ana shunday murakkab vaziyatda barcha davlatlar bilan tenglik tamoyili asosida siyosat yuritish, ko'p qirrali do'stona aloqalarni mustahkamlash oson kechmasligi aniq. Buni uzoqni ko'zlagan aniq reja asosida amalga oshirish mumkin.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining 5-yo'nalishida xavfsiz va tinchliksevar davlat tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish vazifalari belgilab qo'yilgan. Bunday siyosat jamiyatda mamlakat kelajagiga ishonchni mustahkamlab, olib borilayotgan islohotlar izchilligini ta'minlaydi. Zero, tashqi siyosatda to'g'ri yo'lni tanlay olgan mamlakat ichki yangilanishlarni amalga oshirishda yetarlicha vaqt va salohiyatga ega bo'ladi.

Ayni paytda davlatimiz rahbarining ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat borasidagi taklif va tashabbuslari xalqaro maydonda yuksak e'tirof etilayotgani boisi ham shunda. Ta'kidlash kerak, yangi O'zbekistonning tashqi siyosati, avvalo, xalq va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirilmoqda. Strategiyada bu yo'nalishda juda katta maqsad va qator chora-tadbirlar o'rin olgan.

Inson dunyoga kelibdiki, baxtga intilib yashaydi. Unga yetishish yo'llarini izlaydi.

Albatta, bu ne'matga o'z-o'zidan erishilmaydi. Xalqimiz azaldan baxt deganda tinchlik, xotirjamlik, sihat-salomatlik, farzandlar kamoli, el-yurt oldida yuzi yorug'lik kabilarni asosiy mezon sifatida bilgan.

Tinchlik-osoyishtalik bugun qo'lga kiritayotgan yutuqlarimizning bosh mezonini, erishayotgan maralarimiz, farovon hayotimiz, serfayz dasturxonimiz, farzandlarimiz baxti va kamolining asosidir.

O'zbekiston tashqi siyosatda ko'p qirrali faoliyat, jumladan, xorijiy davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'rnatilayotgan diplomatik aloqalar sabab mamlakatimizga iliq munosabat uyg'otmoqda. Ayni chog' mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbus va takliflar xalqaro maydonda O'zbekiston o'z o'miga ega ekanini bot-bot tasdiqlab turibdi.

► Davomi 3-beta



## Tadqiqot va taklif

AYOLLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH  
yangicha tizim asosida tashkil etiladi

Joriy yilni O‘zbekiston 36 million 799 ming nufus bilan qarshi oldi. Ya‘ni mamlakatimiz aholisi soni bir yilda 2,2 foiz yoki 775 ming kishiga ko‘paygan. Aholi orasida ayollarning ulushi 49,7 foizni tashkil etdi.

yil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollar orasidagi ishsizlik darajasi 13,4 foiz bo‘lgan edi. Buning sabablarini aniqlash va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida institutimiz mutaxassislari tomonidan ayollar orasida so‘rov o‘tkazildi.

Respondentlarning o‘rtacha yoshi 32. Ularning 56 foizi oliy (bakalavr bosqichini davlat granti asosida tamomlaganlar 25,5 foiz), 29 foizi o‘rta maxsus ma‘lumotga ega. Ularning deyarli 54 foizi 3 yildan ortiq vaqt mobaynida ishsiz. So‘rov qatnashchilarining 8,5 foizi ishlash istagi yo‘qligini bildirgan bo‘lsa, 7,5 foizi turmush o‘rtog‘i ruxsat bermasligini, 19,5 foizi uy ishlari va farzandlar tarbiyasidan ortmasligini, 22,7 foizi ish yo‘qligi yoki ular taklif etayotgan oylik maosh pastligi, 5,3 foizi ish o‘rinlari ta‘g‘risida ma‘lumotga ega emasligini bildirgan. Diqqatga molik jihati, ishsiz ayollarning 85,4 foizida ishlash istagi bor, lekin shunga qaramay, ularning bor-yo‘g‘i 24,4 foizi mehnat organlariga murojaat qilgan.

Bundan tashqari, 40 foizi sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimida mehnat qilishni, 55 foizi tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagi borligini ta‘kidlagan.

“Bugungi kunda ayollar biznesini tashkil qilishga qanday omillar qiyinchilik tug‘diradi, deb hisoblaysiz” savoliga respondentlarning 45 foizi mablag‘, 24 foizi bilim va yo‘nakim, 15 foizi garov mulki yetishmasligini bildirgan bo‘lsa, 13,5 foizi kredit olishdagi qiyinchiliklar, 22 foizi farzand tarbiyasi va uy ishlardan ortmayotganini aytgan.

Respondentlar fikricha, ayollarni ish bilan ta‘minlash uchun quyidagi masalalarga e‘tibor qaratish zarur:

- kasbga qayta tayyorlash va o‘qitish tizimini takomillashtirish va kengaytirish;
- mehnat bozori ta‘g‘risida mustazam ma‘lumot berib borish;
- ayollar biznesi uchun bino va inshootlarni bepul ijara berishni rivojlantirish;

— maktabgacha ta‘lim tizimi qamrovini kengaytirish;

— mehnat yarmakalari ko‘lamini kengaytirish va boshqalar.

So‘rov ma‘lumotlaridan kelib chiqib, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlari tomonidan ayollarning ishlash va ishlamaslik ehtimoliga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Natija ayollarning ishlash yoki ishlamasligiga ularning oilaviy holati, ta‘lim darajasi va yoshi ta‘sir qilishini ko‘rsatdi.

Ya‘ni ayollarning oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi ularning ishlash ehtimolini 0,99 foizga oshiradi, oilali bo‘lish esa ishlash ehtimolini 1,35 foizga kamaytiradi, ayol yoshining kattalashishi uning ishlash ehtimolini 0,08 foizga ko‘taradi.

Bundan tashqari, Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan korelyatsion bog‘liqlik natijasiga ko‘ra, ayollar orasidagi ishsizlikka, eng avvalo, tug‘ilish va nikohlar soni ta‘sir etishi ma‘lum bo‘ldi. Tug‘ilishlar bilan bog‘liqlikning mavjudligi tabiiy hol. Lekin O‘zbekiston sharoitida ayollar turmush qurib ham ishsiz bo‘lishining kuzatilishi, birinchi navbatda, aholi orasidagi mental qarshilarga borib taqaladi.

Shunday ekan, nima qilish kerak? Yuqoridagi so‘rov va tahlillardan kelib chiqib, bir qator takliflarni ilgari suramiz:

- ayollar ta‘lim rivojlantirish maqsadida xususiy o‘quv markazlarida (Prezident maktablariga tayyorlov kurslari, ingliz tilini o‘rgatish kurslari va h.k.) qizlarini o‘qitayotgan ota-onalar uchun kurs to‘lovi badalini daromad solig‘i hisobidan qaytarish tizimini joriy etish;
- ayollar uchun O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy o‘quv yurtlarining magistratura bosqichini bepul qilish;
- birinchi yili oliy o‘quv yurtiga kira olmagun ayollar uchun kelgusi yillarda qayta hujjat topshirish to‘lovini bekor qilish;



— ayollar bandligini ta‘minlash maqsadida ayollar uchun moslashuvchan ish jadvali va masofadan turib ishlash tizimini rivojlantirish, bunday ish o‘rinlarini taklif etuvchi ish beruvchilarga maxsus soliq imtiyozlari joriy etish;

— yuqori maosh taklif etiladigan axborot texnologiyalari, moliya va sug‘urta tarmoqlarida xodimlar orasida gender tenglikni (kamida 30 foizni ayollar tashkil etgan) ta‘minlanish ish beruvchilar uchun maxsus soliq va kreditlar bo‘yicha imtiyozlar berish;

— uzoq muddat ishsiz yurgan ayollarni (3 yil va undan ko‘p) ish bilan ta‘minlash ish beruvchilarni ijtimoiy soliqdan ozod etish;

— ayollar uchun mahallalarda raqamlashtirish savdonligini oshirish va ijtimoiy media marketing kurslarini tashkil etish;

— davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi sharoitlar talabga to‘liq javob beradigan hollarda 2 yoshli bolalarni ham joylashtirish bo‘yicha qonun hujjatlariga o‘zgartirish kiritish;

— “Ona — tadbirkor” davlat dasturini joriy etish;

— ayollar uchun maxsus bo‘sh ish o‘rinlari yarmakalarini tashkil etish;

— “Ishga marhamat!” monomarkazlari doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari orqali berib borish tizimini yo‘lga qo‘yish;

— “Ishga marhamat!” monomarkazlari faoliyatini tubdan ko‘rib chiqish va ularni, asosan, monitoring qilish tashkilotiga aylantirib, kasbga o‘qitish tizimida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha oshirish.

Qayd etilganidek, O‘zbekistonda ayol-qizlar har doim ulug‘lanib kelgan. Ularga mehr va g‘amxo‘rlilik ko‘rsatish olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ajralmas qismiga aylangan va bu o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Yon-atrofimizda ayollar boshqarayotgan korxonalar, ilg‘or ayol fermerlar, yosh ijodkor va sportchi qizlar, muallimu tarbiyachilar buning yaqqol isboti. Buni davlatimiz rahbari Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanalari marosimida ham alohida ta‘kidlagan.

So‘nggi 5 yilda O‘zbekistonda ishbilanmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshgani, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitilgani, 400 mingdan ko‘pi esa ish bilan ta‘minlangani aytiladi.

Bu yo‘nalisdagi ishlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning faolligini oshirish, onalik va bolalarni himoya qilish, gender tenglikni qanor toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarda ham o‘z aksini topgan.

Hozirgi kunda oliygohlarda ta‘lim olayotgan 1 million 300 mingga yaqin talabning yarmidan ko‘pini qizlar tashkil etmoqda. Ehtiyojmand oilalarga mansub xotin-qizlar qo‘shimcha davlat granti bo‘yicha o‘qishga qabul qilinmoqda. Ular uchun imtiyozli ta‘lim kreditlari ajratish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarning kontrakt pulini qoplab berish yo‘lga qo‘yilgan.

Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili davlat dasturida xotin-qizlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, bandligini ta‘minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan vazifalar ham talaygina. Xususan, joriy yilda maxsus komissiya tuzilib, xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha ishlar mutlaqo yangicha yondashuv va tizim asosida tashkil qilinadi.

Viloyat, tuman, shahar hokimlari, hokimliklarning xotin-qizlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari hamda faol ayollar maxsus komissiya bilan birgalikda 9442 ta mahalladagi 580 mingga yaqin ishsiz ayolning bandligini ta‘minlashga mas‘ul etib belgilanadi. Xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinib, loyihalarni amalga oshirish uchun 15 trillion so‘m ajratiladi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniyadan 100 million dollar grant jalb qilinadi. Mana shu fakt va raqamlardan ham ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz xotin-qizlari doimiy e‘tibordir. Ularning munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ular o‘rtasida o‘tkazilayotgan turli so‘rov va tahlillar ana shu sa‘y-harakatlarga turtki berishi bilan ahamiyatlidir.

## Kun mavzusi

Fazilatxon O‘rmonova  
Farg‘ona shahridagi  
“Shakarqishloq” mahalla  
fuqarolar yig‘ini Taronas  
ko‘chasida qurilgan ko‘p  
qavatli uylarga ko‘chib kelgan  
yosh oila bekasi. Tikuvchilik  
malakasiga ega bo‘lgani uchun  
uyda bekor o‘tirmadi. Dastlab  
uyidan olisroq hududda  
tikuvchilikni yo‘lga qo‘ydi.  
Farzandlari yosh, ularni  
bog‘cha, maktabga kuzatish  
va kutib olishda birmuncha  
qiyinchiliklarga duch keldi.  
Shu bois, ishini vaqtincha  
to‘xtatdi.

Bir suhbatda o‘zi yashayotgan ko‘p qavatli uy yerto‘lasida ijara asosida tadbirkorlik subyektlariga berilayotganidan xabar topdi. Shu tariqa “Obod Taronas” uy-joy boshqaruv servis kompaniyasidan 20 kvadrat metr joyini ijara olib, tikuvchilikni qayta yo‘lga qo‘ydi. Bu yerda ayollar va bolalar uchun bejirim liboslar tayyorlanayapti. Bundan tashqari, “Ustahog‘ird” maktabi asosida mahallaning uch nafar xotin-qiziga kasb-hunar o‘rgatib keladi.

— Uyimiz yerto‘lasi qarovsiz, tunda qorong‘i, yozda hasharotlarga to‘lardi, — deydi Fazilatxon. — Uni aholi roziligini, uy-joy boshqaruv servis kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq foydalanishga oldim. Ijara to‘lovlarimiz shahardagi boshqa joylarga nisbatan 5-6 barobar arzon. Masalan, 20 kvadrat metr joy uchun bir oyda 157 ming so‘m ijara haqi to‘laymiz. Buning hisobiga aholiga arzon xizmat turlarini taklif qilaymiz. Endi uyimizning shundoq oldida ishlash bilan birga farzandlarimiz ta‘lim-tarbiyasini nazorat qilish imkoniga ham ega.

Tikuvchilik ustaxonasi shu hududda qo‘nim topgan mijozlar bilan gavjum, fayzli. — Uyimizning yerto‘lasida tikuvchilik sexi ish boshlagani har jihatdan qulay, — deydi Nargiza Ahmedova. — Shu paytga qadar oddiy libos tayyorlatish uchun ham shahar markaziga borishga majbur bo‘lganmiz. Endi bu kabi ovoragarchiliklar barham topdi. Eng muhimi, yashash joyimiz har jihatdan obod bo‘lishda tadbirkorlik subyektlarining hisssasi katta bo‘lmoqda. Yaqinda tungi yoritish chiroqlari, kuzatuv kameralari o‘rnatildi.

\*\*\*  
Dostonbek Saidov ko‘p qavatli uy yerto‘lasida sataroshlik qilayotgan yoshlardan. U ikkita sataroshxonaga ochib, 5 ta yangi ish o‘rni yaratgan.

UY YERTO‘LASIDAN  
KATTA BIZNES SARI

Agar sizda ham shunday reja bo‘lsa,  
qanday yo‘l tutish kerak?

— Bolaligidan sataroshlikka qiziqaman, — deydi yosh tadbirkor. — To‘g‘risini aytaman, avvaliga bir oz hayiqdim. Uy yerto‘lasiga mijozlar kelarmikan, noqulaylik tug‘ilmasnikan, degan xavotir bo‘lgandim. Hammasi kuganimdan ziyoda bo‘ldi. Hududimizda ko‘p qavatli uylar ko‘p. Lekin xizmat ko‘rsatish tarmoqlari kam. Shu bois, xizmatimizga talab ortib bordi. Uydagilar bilan maslahatlashib, qo‘shimcha ustaxona o‘chdim. Ko‘p qavatli uy yerto‘lasidan maqsadli foydalanib, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari tashkil etish har jihatdan qulay. Buning uchun katta joy, ortiqcha sarmoya, dabdaba talab etilmaydi. Yaxshi so‘z, malakali xizmat bo‘lsa, kifoya.

\*\*\*  
Tadbirkor Shahodat Mahmudova ko‘p qavatli uy yerto‘lasida “Shahzoda shirinliklari” brendi asosida tayyorlayotgan pishiriqlar xaridoridir. Bu yerda 3 ta doimiy va kasanachilik asosida 2 ta yangi ish o‘rni ochildi. Tadbirkor

“Shahodat shirinliklari” telegram guruhini tashkil qilgan. Uning 2 mingdan ortiq a‘zosi bor. Guruhda pishiriqlarga buyurtmalar qabul qilish barobarida yangi turdagi shirinliklar tayyorlash usullari haqida ma‘lumotlar berib boriladi.

— Ko‘p qavatli uylarda yashovchi aholining talab va ehtiyojini o‘rganib, ularning yerto‘lasida qaysi turdagi xizmatlar ochish yuzasidan tavsiyalar, yerto‘ladagi mavjud holat, imkoniyat va imtiyozlar haqida ma‘lumotlar berib boryapmiz, — deydi “Obod Taronas” uy-joy boshqaruv servis kompaniyasi raisi Shohidaxon Umarova. — Shu kunlarda tikuvchilik, fitnes klubi, kompyuter xizmati, til o‘rgatish markazi, sport-sog‘lomlashtirish, poyabzal ta‘miri kabi tadbirkorlik yo‘nalishida ishlash istagida bo‘lgan tashabbuskorlardan takliflar oldik. Bu o‘nlab ish o‘rinlari yaratish bilan birga hududimizning obod va orasta bo‘lishiga xizmat qiladi.

“Obod Taronas” uy-joy boshqaruv servis kompaniyasi ayni kunda 20 dan ortiq ko‘p

qavatli uy-joyga xizmat ko‘rsatadi. Ammo aksariyat uylarning yerto‘lasi bo‘m-bo‘sh. Ayrim yerto‘lalar o‘zboshimchalik bilan egallanib, qulf osilgan.

— Ko‘p qavatli uy yerto‘lasini o‘zboshimchalik bilan egallab olganlarga qonunchilikda belgilangan talablar asosida chora ko‘rish yuzasidan tegishli tashkilotlarga murojaat qilganmiz, — deydi servis kompaniya raisi. — Lekin hanuzgacha amaliy yechim yo‘q. Dastlabki hisob-kitoblarning maqsadli foydalanilayotgan yerto‘la bor. Ayni kunda mazkur joylarni qayta ro‘yxatga olish, yangi tadbirkorlik subyektlari uchun joy taklif qilish borasida ish olib boryapmiz.

Birgina misol. Farg‘ona shahri “Shakarqishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini Taronas ko‘chasi 16/13-ko‘p kvartirali uyning yerto‘la qismidan deyarli foydalanilmayapti. Farg‘ona viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishda ham uyni yerto‘la qismidan omborxonasifatida samarasiz foydalanib kelinayotgani aniqlandi. Holat bo‘yicha inspeksiya mutaxassislari tomonidan ko‘p kvartirali uyda yashovchi mulkdorlarga yerto‘la qismidagi joylar mulkdorlar roziligini va boshqaruv organi ruxsati asosida ijara berilsa, tadbirkor tomonidan to‘lanadigan ijara haqi shu uylarning umumiy foydalanishdagi joylarni ta‘mirlash va saqlash xarajatlarini uchun yo‘naltirilishi to‘g‘risida huquqiy tushuntirish berildi. Yerto‘lada to‘planib qolgan chiqindilar uylarga xizmat ko‘rsatib kelayotgan “Obod Taronas” uy-joy boshqaruv servis kompaniyasi tomonidan tozalandi.

— Hududimizdagi 64 ta ko‘p qavatli uy yerto‘lalaridan imkon qadar samarali foydalanayapmiz, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Ergashali Abdullayev. — Shu kungacha qadar bu yerda tadbirkorlik faoliyatini boshlamochi bo‘lgan tashabbuskorlarga



Sherzod Qoraboyev olgan suratlari.

jami 150 million so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratildi. Buning hisobiga ko‘p qavatli uylar yerto‘lasida 18 ta chevarxona, 9 ta go‘zallik saloni, 10 ta sog‘lomlashtirish maskani, 8 ta pazandalik tarmog‘i tashkil etilib, 80 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Bu mahalla hayotidagi mavjud imkoniyatlar bilan taqqoslaganda birmuncha kam. Lekin qo‘l qovushtirib o‘tirmaymiz yo‘q.

\*\*\*  
Farg‘ona shahrida yerto‘lalarining umumiy maydoni 806 269 kv.m bo‘lgan 1064 ta ko‘p qavatli uy mavjud. Bugungi kunga kelib, 457 450 kv.m yerto‘la maydonidan maqsadli foydalanilmayapti. Bu qanchadan-qancha xizmat ko‘rsatish subyektlari tashkil etish, yuzlab yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati borligidan dalolat beradi.

Yana bir jihati, ko‘p kvartirali uylar yerto‘lasida o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida 36 ta holdatda undan foydalanish qoidalari buzilgani, tegishli ruxsatnomalarsiz

yerto‘la qismi devorlariga o‘zgartirish kiritilgani hamda noqonuniy egallab olingan holatlar yuzasidan majburiy ko‘rsatmalar berilib, ular asl holatiga qaytarildi.

— Yerto‘lani ijara oluvchilar to‘rtta asosiy qonun talablariga rioya etishi zarur, — deydi Farg‘ona viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi bo‘limi bosh mutaxassisi Muzaffar Qurbonov. — Foydalaniladigan yerto‘lalarda alohida kiriladigan eshik, tabiiy yoritish va ventilyatsiya moslamalari, joy devori, shifti yong‘inga qarshi norma talablariga muvofiq, pol qoplangan va pardozlangan bo‘lishi kerak. Yerto‘lani ijara oluvchi uning o‘ziga tegishli qismini o‘z hisobidan joriy ta‘mirlashi, kommunal xizmatlar xarajatini belgilangan tartibda va muddatda to‘lab

borishi lozim. Yerto‘lani boshqa maqsadda qayta jihozlash, o‘zgartirish va rekonstruksiya qilish, konstruktiv sxemasi, old ko‘rinishi va tashqi qiyofasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bo‘yicha ham tartib bor. Endilikda ko‘p qavatli uylar yerto‘lasi va bo‘sh maydonlar haqida ma‘lumotlar raqamlashtirilib, “Mening uyim” tizimiga bog‘lanib, aholi va tashabbuskorlarga ochiq e‘lon qilish tartibi joriy etildi. Ijara to‘lovlaridan tushgan mablag‘lar ham faqat “Mening uyim” platformasi orqali hisob-kitob qilinadi va aholi uchun ochiq bo‘ladi.

Sirasini aytganda, ko‘p qavatli uylar yerto‘lasida tadbirkorlik qilish uchun, avvalo, shunga mos sharoit bo‘lishi talab etiladi. Nosanoat xususiyatiga ega xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish hududni obod va ozoda saqlashda yangi imkoniyat eshiklarini ochadi.

Rasuljon KAMOLOV,

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Lutfullo SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bu, o'z o'rnida, xalqaro maydonda xalqimiz manfaatlarini dadil himoya qilish imkonini bermoz. Buni turli davlatlar bilan olib borilayotgan diplomatik muloqotlar, birinchi navbatda, xalqimizning tinch, xavfsiz, yurtimizda va xorijda erkin yashashini kafolatlashga qaratilgan ishlar misolida ko'rish mumkin. Bunday kafolat mamlakatimizga investorlarni jalb etish, o'z o'rnida yurtdoshlarimizning mintaq va xalqaro miqyosda tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, zamonaviy bilim olishi, yangi kasblarni egallashi uchun imkon tug'dirmoqda. Ya'ni O'zbekiston xalqaro maydonda ham o'z fuqarolari muhofazasini davlat tomonidan ta'minlamoz.

Tinchlik shukhi hukmron bo'lmasa, insonga tabiatdagi hech bir narsaning, jamiyatdagi huzur-halovatning qadri qolmaydi. Xotirjamlik yo'q joyda taraqqiyot bo'lmaydi. Kelajak, ertangi kun haqida orzu-umid ham, baxt ham, osudalik ham xayolga aylanadi. Shu bois, tinchlik taraqqiyotning bosh omili, erishayotgan barcha muvaffaqiyatlarimizning kalitidir.

Insoniyat yashash davomida ezgu maqsadlarga yetish uchun doimo izlanadi va harakatda bo'ladi. Ezgu maqsadli inson orzu-umidini amalga oshirishi uchun eng katta tayanch tinchlik va osoyishtalik muhitidir.

# XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT

## Tashqi siyosat xalqimiz manfaatlariga xizmat qilmoqda

Ota-bobalarimiz har safar duoga qo'l ochganda tinchlik-xotirjamlik so'rashida chuqur ma'no bor. Bu esa milliy rivojlanishimiz va tarixiy tajribamizda sinalgan qadriyatlar tashqi siyosatimizning butun mazmuni va mohiyatida, har bir so'zida aks etgan. Boshqacha aytganda, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tashqi siyosatning asosiy maqsadi, mamlakatimizda va mintaqada barqaror rivojlanishga, tinchlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, strategik vazifalardan tashkil topgan.

Aholining keng qatlamli, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan va turli sohalarida faoliyat yuritayotgan fuqarolar qo'shni davlatlar bilan o'rnatilgan va tobora kengayib borayotgan o'zaro aloqalardan manfaatdor. Ayniqsa, 2017-yildan boshlangan yangi mintaqaviy siyosiy diplomatik aloqalar mintaq doirasida o'zaro madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy, gumanitar, tadbirkorlikni rivojlantirishning yangi mexanizmlarini yaratdi.

Ochig'ini aytish kerak, uzoq yillar davomida qo'shni davlatlar bilan bordi-keldi ancha kamaygan, chegaralar yopilgan tarzda yashashga majbur bo'ldik. Biroq so'nggi yillarda vaziyat tubdan o'zgardi. Bugungi kunda yon qo'shnilarimiz bilan ishonch va hurmatga, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan pragmatik siyosat olib borilmoqda.

Ahamiyatli, qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq, madaniy-ma'rifiy aloqalar borgan sarf rivojlanayotir. Eng muhimi, qarodosh xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, quda-andachilik, yaxshi qo'shnichilik an'analari qayta tiklandi. Bu esa xalq diplomatiyasining amaldagi yaqqol ko'rinishidir.

Bir necha yil davomida sun'iy ravishda to'xtab qolgan yaxshi qo'shnichilik, odamlar o'rtasidagi bordi-keldi, qarindoshlikning xalqaro huquqiy mexanizmlari qayta tiklandi. Ayni dam bu boradagi munosabatlar yangi bosqichga olib chiqildi. Bu jarayon, o'z navbatida, mintaq davlatlari aholisi o'rtasida, ayniqsa, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, tadbirkorlik sohalarida yangi va

Uzoq yillar davomida qo'shni davlatlar bilan bordi-keldi ancha kamaygan, chegaralar yopilgan tarzda yashashga majbur bo'ldik. Biroq so'nggi yillarda vaziyat tubdan o'zgardi. Bugungi kunda yon qo'shnilarimiz bilan ishonch va hurmatga, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan pragmatik siyosat olib borilmoqda.

istiqbolli sherikchilik, ishlab chiqarishda kooperatsiya tashkil qilinishiga sabab bo'ldi. Aholi turmush darajasi yaxshilanishi, farovonligi o'sishiga olib keldi.

Albatta, bu jarayon, bir tomondan, bevosita aholi manfaati asosida shakllanib, rivojlanib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu jarayonni chuqurlashtirish va jahon bozoriga chiqish uchun hamkorlikda ishlab bilan bog'liq ehtiyoj va manfaatlar shakllanishiga



sabab bo'ldi. O'zbekistonning yangi mintaqaviy hamkorlik bo'yicha dadil va pragmatik harakatlari hamda istiqbolli rejalarini buning asosiy rivojlantiruvchisidir. Buni keyingi yillarda qo'shni mamlakatlardan aholining O'zbekistonga kelishi, qarindosh-urug'lari bilan ko'rinishi, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishi, tadbirkorlik va savdo-sotiq ishlar bilan shug'ullanishi kabi ijobiy holatlar ko'payganida ham ko'rish mumkin.

Kelgusida bu boradagi ishlar ko'lami yanada kengayishi kutilmoqda. Negaki, aholi ehtiyoji va manfaatdorligi kun sayin oshib boraveradi. Shu bois, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar, o'z navbatida, xorijlik hamkorlar ham ushbu aloqalarni mustahkamlash tarafdori.

Tashqi siyosatdagi bunday iliq hamkorlik ko'lami kengayishi aholining iqtisodiy

manfaatlarini ta'minlashda qo'l kelmoqda. Ya'ni yangi hamkorliklar sabab ko'plab yangi ish joylari yaratilmoqda. Zamonaviy texnologik qo'shma korxonalar va fabrikalar soni oshib boryapti. Natijada aholi ko'p yashaydigan, ammo ishlab chiqarish quvvati mavjud bo'lmagan xududlarda sanoat korxonalari tashkil etilyapti. Eski infratuzilma zamonaviy texnologik o'zgarishlar asosida modernizatsiya qilinib, ishga tushirilmoqda.

belgilangani ham ana shu maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda xorijda besh milliondan ortiq yurtdoshlarimiz yashab, turli sohalarida faoliyat olib bormoqda. Ularga o'zbek tilini va madaniyatini, milliy urf-odatlarini saqlab qolishi, o'zaro tadbirkorlikni amalga oshirishi va mamlakatimizdagi qarindoshlarinikiga kelib-ketishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy shart-sharoit yaratildi. Bu yo'nalishdagi

ishlarni yanada yaxshilash va samaradorligini oshirish uchun mamlakatimizda Vatandoshlar jamg'armasi faoliyat yuritmoqda.

Ushbu jamg'arma faoliyati doirasida keng qamrovli madaniy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu faoliyat, avvalo, yurtdoshlarimiz manfaatidan kelib chiqib, amalga oshirilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xorijiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishga o'ziga xos yordam bermoz.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shaxsan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tashqi siyosat, avvalo, xalqimiz ehtiyoji va manfaatlarini ta'minlab, tashqi siyosiy diplomatik faoliyatning barcha shart-sharoitlarini yaratib bermoz. Bunday tashqi siyosatning asoslari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan.

Bu yo'nalishda yangi qo'yilgan maqsadlar xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitini yanada yaxshilash va farovonligini oshirish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni izchil rivojlantirish, yoshlarimiz zamonaviy dunyoning barcha ijobiy imkoniyatlarini o'zlashtirib, raqobatbardosh avlod bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda mamlakatimizning iqtisodiy ochiqligi hamda investitsiyalar va biznes uchun jozibadorligi, barcha muammoli masalalarni yakkilik, o'zaro hurmat va hamjihatlik asosida hal etishga intilish, dunyoning yetakchi davlatlari va boshqa mamlakatlari bilan muvozanatli, o'zaro manfaatli aloqalar yuritish, siyosiy ishonch va xalqaro huquqqa rioya etilishi asosidagi o'zaro hamkorlikka intilish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Bir so'z bilan aytganda, xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlarini mas'uliyatli va samarali himoya qilish bo'yicha ishlar izchil davom ettiriladi.



Firdavs SHARIPOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mita raisi o'rinbosari

Qonun ijodkorligi Oliy Majlis faoliyatining eng muhimi, asosiy yo'nalishlaridan biri. Albatta, qonunlar inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Oliy Majlisning bu boradagi faoliyat sifatini oshirib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylindi.

Prezidentimizning 2018-yil 8-avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni mazkur faoliyatga zamonaviy yondashuv va yangicha mazmun olib kirdi. Shu asosda izchil va keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi, yangi tartib-qoidalar joriy etildi.

Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlar qabul qilishning demokratik shakllarini joriy etish, qonun loyihalarini keng jamoatchilik vakillari muhokamalaridan o'tkazish, shuningdek, xalqaro shartnoma va reytinglarga mosligini o'rganishga ustuvor ahamiyat berildi. Bu samarasini berdi: oxirgi 6 yil ichida O'zbekiston "Qonun ustuvorligi" (Rule of Law) indeksi bo'yicha 5 hamda "Jahon boshqaruv ko'rsatkichlari" (WGI) indeksida 24 pog'ona yuqoriladi.

# NORMA BIR, TALQIN TURLICHA

## To'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlar qabul qilish vaqti keldi

Mazkur soha rivojiga oid "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi hamda yangi tahrirdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi kabi muhim qonunlar qabul qilindi.

Shu o'rinda qonun ijodkorligining hayotga joriy etilgan ayrim jihatlarga to'xtalib o'tsak. Yangi tahrirdagi qonun hujjatini qabul qilish o'rinda yangi qonun hujjatini qabul qilish va bir vaqtning o'zida amaldagi qonun hujjatini o'z kuchini yo'qotgan deb topish amaliyoti joriy etildi. Bu, o'z navbatida, turli chalkashliklar va tushunmovchiliklarning bartaraf etilishiga olib keldi.

Shuningdek, qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu esa davlatimizning xalqaro maydondagi huquq va majburiyatlarini to'laqonli bajarilishiga, yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligi oshishiga, umuman, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Muhim jihati, "qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart" degan ustuvor tamoyil asosida qonun ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik jalb qilinmoqda. Qonun loyihalari keng muhokamaga qo'yilib, fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflarini o'rgangan holda tayyorlash, aholi o'rtasida ochiq muhokamalar o'tkazishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ular siyosiy partiyalarning hududiy organlari hamda Xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari bilan ham muhokama qilinib, takliflar olinishi bu yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirmoz.

Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan, ya'ni ijro etilishi uchun yana bir



hujjat ishlab chiqilishi talab etilmaydigan qonunlarni qabul qilishga e'tibor kuchaydi. Bu kabi yangi yondashuvlar tatbiq etilishi natijasida qonun hujjatlarining natijadorligi va hayotiyiligi oshmoqda.

Qonunchilik tashabbusi huquqiy subyektlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi mas'uliyatini yanada oshirish uchun qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida birinchi o'qishda ko'rib chiqilayotganda tashabbuskor subyektlar yoki uning vakili ma'ruza bilan chiqishi va himoya qilishi belgilandi. Bu qonun loyihasi sifatini yaxshilashga, subyektlarning ushbu jarayondagi faolligini yanada kuchaytirishga va muhokamaning jonlanishiga xizmat qilmoqda.

Jamiyatdagi o'zgarishlar, islohotlar shiddati ortib boryapti. Ushbu jarayonlarning qonuniy bazasini o'z vaqtida mustahkamlash zarurati nuqtayi nazaridan qonunlarga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish holatlari ko'paymoqda. Shundan kelib chiqib, qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarining shakli hamda rasmiylashtirish tartibi takomillashtirildi. Ya'ni ular uzoq vaqt davomida qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarining shakli hamda rasmiylashtirish tartibi takomillashtirildi. Ya'ni ular uzoq vaqt davomida qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarining shakli hamda rasmiylashtirish tartibi takomillashtirildi.

Qonun hujjatlarida havolaki normalar bir necha maqsadda foydalaniladi. Jumladan, normativ ko'rsatmalarning o'zaro bog'liqligini ifodalash zarurati bo'lgan hollarda yoxud tartibga solingan munosabatni qayta takroran tartibga solishning oldini olish uchun qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, havolaki normalar kerak. Faqat qonun darajasida belgilanishi lozim bo'lgan qoidalar qonunosti hujjatga havola etmaslik lozim. Sababi, havolaki normalarning xavfli jihati yoki bu masalani tartibga solishni boshqa mansabdor shaxsning ixtiyorida qoldirishdan kelib chiqadi. Shuning uchun ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, keyingi yillarda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qonun ijodkorligini yanada rivojlantirish bo'yicha aniq istiqbolli rejalar mavjud. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning monitoringi va tartibga solish ta'sirini baholash hajmini oshirish, barcha uchun qulay, sodda va icham qonunchilik tizimini yaratish maqsadida bir qator samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-fevraldagi "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha

Havolaki norma deganda yoki bu qoidani qonun hujjatlaridagi boshqa moddalarga yoki ilgari qabul qilingan qonun hujjatlariga havola qilish yoxud normalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish, ya'ni agar normaning o'zida qoidalar belgilangan bo'lmasa, ularni o'zida mujassam etgan boshqa normaga havola etish tushuniladi.

Qonun hujjatlarida havolaki normalar bir necha maqsadda foydalaniladi. Jumladan, normativ ko'rsatmalarning o'zaro bog'liqligini ifodalash zarurati bo'lgan hollarda yoxud tartibga solingan munosabatni qayta takroran tartibga solishning oldini olish uchun qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, havolaki normalar kerak. Faqat qonun darajasida belgilanishi lozim bo'lgan qoidalar qonunosti hujjatga havola etmaslik lozim. Sababi, havolaki normalarning xavfli jihati yoki bu masalani tartibga solishni boshqa mansabdor shaxsning ixtiyorida qoldirishdan kelib chiqadi. Shuning uchun ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, keyingi yillarda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qonun ijodkorligini yanada rivojlantirish bo'yicha aniq istiqbolli rejalar mavjud. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning monitoringi va tartibga solish ta'sirini baholash hajmini oshirish, barcha uchun qulay, sodda va icham qonunchilik tizimini yaratish maqsadida bir qator samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-fevraldagi "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan sohada qator masalalar o'z yechimini topmoqda.

Avvalo, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalaridagi qonunlarning havolaki normalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, 2 ta kodeks va 21 ta qonundagi 41 ta havolaki normani amalga oshirish bo'yicha mas'ul ijrochilar va aniq muddatlar belgilangan.

Ikkinchidan, 2024-yil 1-martdan boshlab agar qonun loyihasida havolaki norma qo'llanilsa, uni amalga oshirishning aniq muddati va mas'ul ijrochi loyihaning o'zida majburiy tartibda belgilanadi. Ya'ni endi umumiylik, mavhumlikdan anqlikka o'tiladi. Uchinchidan, qonunosti hujjatlar bilan tartibga solingan munosabatlarni qonun darajasiga ko'tarish imkoniyatini muhokama qilish shartligi belgilanib, bu haqda qonun loyihasining tushuntirish xatida bayon etiladi.

To'rtinchidan, qonunning samaradorligi, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganini aniqlash uchun qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o'tib, mas'ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari tomonidan uning tartibga solish ta'sirini baholash amaliyoti joriy etiladi.

Beshinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani ishlab chiqish jarayonida loyiha tayyorlashdan oldin xalqning fikri olinib, undan so'ng loyiha umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi. Mazkur ijobiy tajribadan kelib chiqib, eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar endi xuddi shu tartib asosida ishlab chiqilishi belgilanmoqda. Bu orqali jamoatchilikning keng ishtiroki hamda hujjatning xalqchil bo'lishi ta'minlanadi.

Umuman olganda, qonunlar xalq manfaatini, fuqarolar uchun yaratiladi. Shunday ekan, uni hammasi tushunadigan shaklda ishlab chiqish, qabul qilish va uni amalga qo'llay olish imkoniyatini oshirish asosiy vazifa hisoblanadi.





## Bugunning gapi



Sa'dulla TOJIYEV,

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari, iqtisod fanlari nomzodi

## Boshlanishi 1-betda

Ilg'or klasterlarda allaqachon paxta tolasini chuqur qayta ishlash to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, ichki va tashqi bozorga tayyor mahsulot sotilmoqda. "Xiva klaster" ana shunday ilg'or subyektlardan biri hisoblanadi. Uning Xiva tumanida o'tgan yil kuzida foydalanishga topshirilgan zamonaviy fabrikasi Turkiya, Germaniya va Xitoydan keltirilgan ilg'or uskunalar bilan jihozlangan. Yiliga 7 ming tonna ip-kalava, 4 ming tonna trikotaj mato, 10 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ularning sifati yuqori ekanligi tufayli xalqaro bozorda bemaol raqobatga kirishmoqda. Natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to'liq eksportga yo'naltirilayapti.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida 12 ta paxta-to'qimachilik klasteri faoliyat yuritmoqda. Ularga jami 80 ming gektardan ortiq yer maydoni berilgan. Ushbu ekin maydonlarida paxta yetishtirish bilan cheklanib qolmasdan, 167 ming tonna tola ishlab chiqarish, 80 ming tonna ip-kalava, 11 ming tonna mato, 33 ming tonna tayyor trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, 7 ming tonna matoni bo'yash va pardozlash quvvatlari yaratildi.

Albatta, bu yangi tuzilma faoliyatining dastlabki yillarida amalga oshirilgan ishlar. Prezidentimizning ko'rsatmalaridan kelib chiqib, viloyatdagi klasterlar tomonidan qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish bo'yicha umumiy qiymati salkam 1 trillion so'mlik investitsiyaviy loyihalar ishlab chiqildi. Ular doirasida 115,7 ming tonnalik qayta ishlash quvvatlari yaratilishi ko'zda tutilmoqda. Buning hisobiga 15 ming qo'shimcha ish o'rni yaratilishi, eksport hajmi karrasiga oshishi kutilayotgani e'tiborga molikdir.

Mamlakat miqyosida aytganda esa dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, paxta hosilini to'liq qayta

Paxta-to'qimachilik sohasini sifat jihatdan rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning navbatdagi bosqichi zamirida bitta maqsad-muddao mujassam, u ham bo'lsa, paxtachilikda hosildorlikni ko'tarish, to'lani chuqur qayta ishlash darajasini keskin oshirish orqali fermer va klasterlarning daromadini ko'paytirish, dunyoda kuzatilayotgan inqirozlar ta'sirini kamaytirishdir.



# KLASTER TIZIMIDA YANGI BOSQICH

## U IP-KALAVANI 100 FOIZ QAYTA ISHLAB, QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISHGA QARATILGAN

ishlash natijasida 2024-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,6 milliard, eksport 4,5 milliard dollarga yetkazilishi kutilmoqda. Bunga amalga erishish uchun yurtimizda paxta yetishtirish, uni birlamchi va chuqur qayta ishlash bilan mashg'ul bo'lgan 142 ta paxta-to'qimachilik klasteri har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, zarur shart-sharoit yaratib berilyapti. Binobarin, birgina 2023-yilda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish bo'yicha 14,1 trillion so'mlik 284 ta loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

## Tarixiy hujjat

Keyingi paytda klaster tizimida zalvarli yutuqlar qo'lga kiritilishi barobarida ayrim kamchiliklar ham uchrab turgandi. Bu klaster va fermer munosabatlarida ko'zga yuqalqorlashgan edi. Ana shunday pallada Prezidentimizning 2023-yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu qayta tuzilgan bosqichni boshlab berdi. Shu bois, uni qishloq xo'jaligi xodimlari, to'qimachilik sanoati vakillari tarixiy hujjat sifatida e'tirof etmoqda.

Gap shundaki, unda paxtachilik tarmog'ida mavjud muammolar tahlil qilinib, klaster va fermerlar o'rtasidagi munosabatlarni yangicha tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Jumladan, 2024-yil hosildan boshlab paxta yetishtiruvchilar va klasterlar o'rtasida munosabatlari yangi tartibda tashkil etiladigan bo'ladi.

Eng katta yangilik, bundan buyog'iga paxta yetishtirish bo'yicha fyuchers shartnomalari mavsum avvalida, aniqlik, chig'it ekilishidan oldin tuziladi. Ilgari fermer xo'jaliklari o'zi faoliyat yuritayotgan tumanidagi klaster bilan shartnoma tuzgan bo'lsa, endi bunday cheklov olib tashlandi. Paxta yetishtiruvchilar viloyatdagi istalgan klaster bilan To'vaxomashyo birjasining paxta xomashyosi seksiyasida har bir hudud uchun o'tkaziladigan savdolar orqali shartnoma tuzishi mumkin. Bu jarayonda tuproq unumdorligi, ekin yerlarining ball boniteti inobatiga olinadi. Sodda qilib aytganda, fermer o'zi yetishtiriladigan paxta miqdorini birjaga joylashtiradigan so'ng



2024-yildan hosildorlik ko'rsatkichi pasaygan, aniqlik, 30 sentnerdan kam hosil berayotgan navlar muntazam aniqlanib, serhosil mahalliy va xorijiy navlarga almashtirib boriladi.

balandroq narx taklif etgan viloyat hududidagi klaster bilan fyuchers shartnomasini tuzadi.

Eng ko'p muhokamaga sabab bo'layotgan masala xarid narxi edi

Ochig'ini aytish kerak, klaster va fermerlar munosabatlarida eng ko'p muhokamaga sabab bo'layotgan masala paxtaning xarid narxi edi. Fermer peshona teri evaziga yetishtirgan hosilini qimmatroq sotishni istasa, klaster jahon bozorida holatdan kelib chiqib, arzonroq olishga intiladi. Aslida, bu — bozor qonuniyati. Sotuvchi ham, oluvchi ham foydani ko'zlashi

xomashyosini yetishtirish va yakuniy hisob-kitoblar uchun Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan yangi tartib asosida kreditlar ajratiladi. Ushbu mablag' hisobidan agrotexnik tadbirlar doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlar, jumladan, moddiy resurslar yetkazib beruvchilar fermer xo'jaliklari va klasterlar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Xorazmda sho'rga chidamli g'o'za navlari ekiladi

Davlatimiz rahbari Xorazmdagi yig'ilishda har qirch yemi, har tomchi suvni yuqori hosilga aylantirish yo'lidan borishimiz shartligini, buni xorazmliklar hamdan ko'ra yaxshi tushunishini ta'kidladi. Mutasaddilarga xorijiy davlatlardan sho'r tuproqga chidamli paxta navlarini olib kelib, Xorazm sharoitida yetishtirishni tashkil qilish topshirildi. Urganch shahrida qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatlash laboratoriyasi tashkil etiladigan bo'ldi.

Prezidentimizning ushbu tashabbuslarini klasterlar vakillari katta xursandchilik bilan qarshi oldi. Negaki, hosil taqdiri, birinchi navbatda, urug'likka, uning sifatiga bog'liq. Gap g'o'za urug'chiligi haqida borar ekan, urug' tanlashda yetti o'lchab, bir kesish talab etiladi. Keyingi yillarda iqlim o'zgarishi oqibatida kuzatilayotgan jazirama harorat, boz ustiga, suv taqchilligi va qurg'oqchilik kabi omillar g'o'zaning ekstremal sharoitlarga moslashuvchan navlarini tanlab ekishni taqozo qilmoqda.

Davlatimiz rahbari masalana ana shunday o'ta nozik jihatlarga ham e'tibor qaratib, paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari tomonidan g'o'za navlarini joylashtirishda kafolatlangan urug' ta'minotiga muvofiq erkinlik berilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 15-dekabrda imzolagan "Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga keng yo'l ochmoqda.

Mazkur hujjatga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan yuqori hosili xorijiy g'o'za navlari va duragaylarini olib kiritishga ruxsat berildi. Ular tajriba-sinov tariqasida paxta yetishtiriladigan maydonlarning 10 foizigacha joylashtirilishi

mumkin. Shuningdek, "tindirilgan urug'" ekish amaliyoti joriy qilinadi: hududlarda har 2 yilda ekilayotgan navni to'la almashtirish, har yili tegishli nav urug'ini boshqa hududlardan olib kelish orqali almashtiriladi va yillik qo'shimcha urug' zaxirasi yaratiladi.

Aytilish joizki, paxta-to'qimachilik klasteri va fermer xo'jaliklari tomonidan chet eldan keltirilgan g'o'za urug'i o'z holicha ekilmaydi. Navlarning genetik tozaligini molekulyar-genetik tahlil qilish bo'yicha mahalliy vakolatli laboratoriyalar xulosasi olinadi, ekinboplik sifat ko'rsatkichlari baholanadi, 2 yillik yetishtirish natijasi o'rganiladi. Ana shundan so'ng ko'rsatilgan talablarga mos kelsa, O'zbekiston hududida ekish uchun tavsiya qilingan qishloq xo'jaligi ekinlarining davlat reyestriga kiritiladi.

G'o'za urug'chiligi sohasida ham erkin raqobat muhitini shakllantirish maqsadida bozor munosabatlari g'o'limoqda. Ya'ni sertifikatlangan urug'lik tayyorlash vazifasi bosqichma-bosqich paxta-to'qimachilik klasterlari va xususiy urug'chilik korxonalariga o'tkaziladi. Bu boradagi ilk qadam 2024-yildayoq tashlandi. Xususiy urug'chilik korxonalar tomonidan qo'shimcha tarzda urug'lik chig'it yetkazib berish amaliyoti boshlanadi.

2024-yildan hosildorlik ko'rsatkichi pasaygan, aniqlik, 30 sentnerdan kam hosil berayotgan navlar muntazam aniqlanib, serhosil mahalliy va xorijiy navlarga almashtirib boriladi. Dastlab tajriba tariqasida 14 ta tumanning ball boniteti past, suv ta'minoti og'ir bo'lgan hududlarida hosildor bo'lgan mahalliy va xorijiy navlar joylashtirilishi ko'zda tutilgan.

Paxta-to'qimachilik sohasini sifat jihatdan rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning navbatdagi bosqichi zamirida bitta maqsad-muddao mujassam, u ham bo'lsa, paxtachilikda hosildorlikni ko'tarish, to'lani chuqur qayta ishlash darajasini keskin oshirish orqali fermer va klasterlarning daromadini ko'paytirish, dunyoda kuzatilayotgan inqirozlar ta'sirini kamaytirishdir. Xorazm safarida belgilab berilgan vazifalar ijrosi izchil ta'minlash, jahon bozorida paxta tolasini narxining tushib ketishiga qaramasdan, yuqori sifatlili tayyor to'qimachilik mahsulotlarimiz bilan xorij bozorlarini egallab boraveramiz.

## Nuqtayi nazar



Bahrom YUSUPOV,

Qishloq xo'jaligi vazirligi Global iqlim o'zgarishlari sharoitida biodehqonchilikni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi

Qayd etilganidek, biodehqonchilik dehqonlar uchun yangilik emas. Ular agrokimyoviy vositalar, kimyoviy preparatlar paydo bo'lgunga qadar organik dehqonchilik bilan keng shug'ullangan. Bunda ular qishloq xo'jalik ekinlaridan hosil yetishtirishda mahalliy go'ng, kul, eski paxsa devor kesaklari va boshqa tabiiy chiqindilardan keng foydalangan. Shu bilan birga, ekinlarni almashlab ekish tartib-qoidalariga alohida e'tibor qaratgan. Asosiy, biologik dehqonchilik genetik jihatdan toza nav va duragaylarni ekish, ozuqaviy qiymati yuqori, o'ziga xos ta'm hamda iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan organik (ekologik toza) mahsulot yetishtirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda dunyoning 179 mamlakatida organik qishloq xo'jaligi amaliyoti rivojlanmoqda. Ularda 2 milliondan ziyod organik mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud. Dunyo organik mahsulotlari bozorida so'nggi 5 yilda yiliga o'rtacha 15 foizdan o'sishga erishilib, ayni paytda jahon

# BIODEHQONCHILIK

## Agrotarmoqda qanchalik muhim?

Bugun qishloq xo'jaligida an'anaviy dehqonchilikdan tashqari biodehqonchilik tushunchasi ham faol qo'llanilmoqda. Bio (organik) dehqonchilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining bir qismi sifatida ekinlarni yetishtirishga yondashuvni o'zgartiruvchi barqaror tendensiya hisoblanadi. Uning an'anaviy dehqonchilikdan asosiy farqi — ishlab chiqarish jarayonida kimyoviy o'g'itlar, pestitsidlar, antibiotiklar va o'sish gormonlaridan juda kam foydalanishni yoki butunlay voz kechishni talab etadi. Ya'ni u mahalliy sharoit hamda resurslardan to'liq va samarali foydalanishga qaratilgan intensiv qishloq xo'jaligi usulidir.

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi umumiy hajmining 20-22 foizini tashkil etadi.

Biodehqonchilik orqali organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini barqaror ishlab chiqarish bilan birga tuproq unumdorligi oshadi. Atrof-muhitga zarar kamayadi, inson salomatligi mustahkamlanadi. Mahalliy nav va urug'lar saqlab qolinadi. Organik qishloq xo'jaligi butun bir agro-ekotizimni tashkil etib, bunda tabiiy sharoitga ziyon yetkazmasdan, aksincha, uni yaxshilash, saqlash, fan-texnika yutuqlari va tajribalari asosida yanada boyitish, hududdagi ekologik muvozanatni buzmasdan, sifatli hamda xavfsiz mahsulotlar xalqaro darajada tan olingan standartlarga muvofiq holda yetishtiriladi.

Shundan kelib chiqib, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida tabiiy rangli to'la g'o'za navlarini yaratish bo'yicha muassasa qoshidagi g'o'za kolleksiyasida 12 ming 800 dan ortiq yovvoyi, yarim yovvoyi va madaniy namunalari orasidan 100 dan ziyod rangli tola namunalari seleksiya jarayoniga jalb qilingan. Rangli tola g'o'zaning afzalligi shundaki, u

atrof-muhitni ifloslantirmaydi. To'qimachilik sanoatida kimyoviy bo'yoqlardan foydalanilmaydi. Bu, avvalo, salomatlik uchun muhim bo'lsa, xarajatlari 2 barobar qisqaradi. Hozir Sirdaryo viloyatidagi "Poly Tex Sirdaryo", Buxoro viloyatidagi "BCT Cluster Agrokomples" hamda Namangan viloyatidagi "Uchkungun Textile" agroklastarlari dalalarida organik paxta yetishtirish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda.

Biodehqonchilik usullaridan keng foydalanadigan mamlakatlari qatorida Hindiston, Pokiston, Xitoy, Afg'oniston kabi davlatlar sanab o'tiladi. Ular siderat ekinlardan o'g'it sifatida keng foydalanib, ma'danli moddalarni qo'llamasdan, ekologik toza mahsulot yetishtirishda ilg'or hisoblanadi.

Bunda tuproqning fizik xossalari yaxshilab borish, ya'ni chuqur yumshatish, qatlamlar bo'yicha har xil chuqurlikka organik moddalar solish, organik chiqindilar bilan yer dastini mulchlash, ekinlarni sug'orishda ilmiy asoslangan tartiblardan foydalanish, sug'orish usullari va elementlarini to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi.



Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikamizda bu borada qator ijobiy ishlar amalga oshirilmog'da. Misol uchun, 2023-yilda 413 ming gektar maydonda suv tejevchi texnologiyalar joriy qilindi. Natijada suv tejovchi texnologiyalarning umumiy ko'rsatkichi 1,2 million gektarga yoki sug'oriladigan yer maydonlariga nisbatan 30 foizga yetkazildi. Sug'orish mavsumida 3 milliard kub metr suv iqtisod qilinib, ushbu suv resurslari g'alladan bo'shagan maydonlarda ekilgan takroriy ekinlarni sug'orishga yo'naltirildi.

Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini joriy qilish orqali suv resurslarini 30-50 foizga, yonilg'i-moylash materiallari va mineral o'g'itlar 25-35 foiz iqtisod qilinib, hosildorlikni o'rtacha 20-40 foizga oshirishga erishilmoqda.

Qishloq xo'jaligida o'simlikning o'sishi va rivojlanishida mikroorganizmlarning o'rni

haligacha to'liq anglab yetilmagan, desak xato bo'lmaydi. Chunki biz amaliyotda faqat o'simlik — tuproq tizimiga ko'prog'e'tibor beramiz. Vaholanki, xorij qishloq xo'jaligida o'simlik — mikroorganizm — tuproq tizimi birinchi o'rinda qo'yiladi. Sababi, aksariyat ozuqa moddalari va tabiiy birikmalar tuproqdan o'simlikka aynan mikroorganizmlar orqali yoki ularning hayot faoliyati tufayli yetkaziladi. Mikroorganizm va o'simlik bir butunlikda ishlaydi, yetiladi. Tuproq mikroorganizmlari o'simlik ildizlarida yashaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'simlik mikroorganizmga makon hisoblanadi.

Tuproqda foydali mikroorganizmlarni ko'paytirish (somon, go'ng, barglar va boshqa organik chiqindilarni kompost qilish), mineral o'g'itlardan ilmiy asosda foydalanish yoki butunlay foydalanmaslik, pestitsidlar, stimulyatorlar, gerbitsidlarini qo'llamaslik,

yerning tup qatlamlaridagi mineral ozuqa moddalarini o'simlik ildizi tarqalgan qatlamga mobilizatsiya qilish va ekinlarning ek sifatlili elita urug'larini ekish organik dehqonchilikning asosiy prinsipi hisoblanadi. Bu borada Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-amaliy faoliyatining ahamiyati juda katta.

Organik dehqonchilik texnologiyalari yo'nalishining asosiy maqsadi sifatida sug'oriladigan tuproq xossalari o'rganish, tuproqda makro va mikro elementlarni ko'paytirish, yerga organik o'g'itlar solish miqdorini, ishlov berish moddalari, sug'orish me'yori, kam xarajatli, organo-mineral, noan'anaviy o'g'it tayyorlash usullarini yo'lga qo'yishning yangi zamonaviy agrotexnologiyasini ishlab chiqarishga keng tatbiq etish kabi tadbirlarni sanash mumkin.

Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida "Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan ekin maydonlarining toksik moddalar bilan zaharlanish darajasidan kelib chiqib, 3D kartasini tuzish va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish" loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad ifloslanib borayotgan tuproqdan ekologik sof va toza mahsulot olishdir.

Ayni paytda har qanday mamlakat aholisining 80-90 foizida salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha me'yordan chetga chiqishi kuzatiladi. Buning muhim sabablaridan biri yuzaga kelgan ovqatlanish tizimi hisoblanadi. Ya'ni aholining barcha yosh guruhlari ko'plab vitaminlar, mineral tuzlar, antioksidantlar va boshqa biologik faol moddalar yetishmaydi. Shu sababli ushbu qimmatbaho moddalarga boy mahsulotlarni iste'mol qilish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina mamlakatlarda millat salomatligi insonning ovqatlanishi va iste'mol qilayotgan mahsulot sifatiga bog'liq ekani hisobga olingan holda aholining sog'lom ovqatlanishi bo'yicha dastur va konspeyalar ishlab chiqilgan. Bu dasturlarda sabzavotlarni iste'mol qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Organik mahsulotlarni iste'mol qilish darajasi ko'pincha aholining ishgah layoqatligi va umr ko'rish davomiyligini belgilaydi. Demak, sog'lom ovqatlanish va inson salomatligi uchun xavfli mahsulot yetishtirishning oldini olish yo'llari to'g'risidagi bilimlarni ommalashtirish ham muhim o'rin tutadi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## Mehrlisiyosat

INSON QADR TOPGAN,  
SIYLANGAN JOYIDA AZIZYoshlar mahalladagi yetakchi yordamida  
buni o'z hayotlarida his qilyaptiRisolat MADIYEVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Olmazor tumani Chilto'g'on mahallasida yashayotgan Donyorбек Panjiyev jamoat joyida muhtashlashi oqibatida probatsiya hisobiga olingan.

— O'tam uzoq yillar ustachilik qilib, bizni halol mehnat bilan voyaga yetkazgan. Bolaligidan otamga hamrohlik qilib, ustachilik kasbi sir-sinoatlarini egalladim, — deydi Donyorбек. — O'rganganlarimni hayotda qo'llab, shuning ortidan pul topayotgan, ro'zg'orning kam-ketigini to'ldirayotgan edim. Tez bo'yib ketaman, degan xayolda ustachilikni tashlab, uyali telefon savdosi bilan shug'ullanishga kirishib ketdim. Kunlardan bir kun xaridor bilan tortishib qoldik. Tortishuv muhtashlashuvga bordi... Shu voqea tufayli probatsiya hisobiga kiritildim. Mana endi obodonlashtirish bo'limida hudud ishchisi bo'lib ishlayapman.

Donyorбек Panjiyevning hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida kelgan yoshlar yetakchisi Jahongir Nosirov ustachilik faoliyatini qayta boshlashi uchun unga nima xalal berayotganini so'radi. Donyorбек: "Ish quroling soz bo'lsa — mashaqqatning oz bo'lar, menda esa kerakli uskunalar yo'q. sotib olishga mablag'im ham yetarli emas. Agar ular bo'lganda jon deb otam kasbini davom ettirgan bo'lar edim", deya javob qaytardi.

Yetakchi tomonidan darhol uni "Jismoniy shaxslarning santexnika uskunalarini mayda ta'mirlash va o'rnatish" yo'nalishi bo'yicha o'zini o'zi band qilish va "Yoshlar daftari" orqali subsidiya sifatida asbob-uskuna olishiga ko'mak berish chorasi ko'rdi.

Tez orada D.Panjiyevga 9 million so'm miqdordagi asbob-uskuna olib berildi.

— Yoshlar qaratilayotgan imkoniyatlarni bugun o'zimizda to'laqonli his qildim. "Yoshlar daftari" orqali menga taqdim etilgan uskunalar ish faoliyatimda asqatmoqda. Bu yordam menga hayotga to'g'ri qadam tashlashimda ko'prikk bo'lib xizmat qildi, — deydi Donyorбек o'ziga ishonchi ortib.

Ezgu orzu o'ylardan bir zum chalg'igan insonni hayotning turli chigalliklari o'z domiga tortishi tabiiy. Ammo u hamma vaqt ana shu qiyinchiliklardan chiqish uchun uzatiladigan qo'l, dalda va ko'makka muhtoj bo'ladi. Insonlar hayotini yaxshi o'zanga burib yuborish, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish mehrlisiyosatning bir bo'laki ekan, Donyor kabi yoshlar aslo e'tibordan chetda qolmaydi.



**Yoshlik yuksak cho'qqilarga intilishi, orzu-umidlari va yaratuvchanligi bilan go'zal. Ana shu go'zallikni qadrlay olmay yo'nlarda adashgan, hayotining ayni navqiron pallasini panjara orqasidagi mahkumlikka almashgan yoki huquqbuzarlik sodir etgan, adashib noto'g'ri yo'lga kirib qolgan yoshlar bilan uchrashganingizda yuragingizda og'riqli bir his tuyasiz. O'z xattiharakatlariga mas'ul bo'lolmaslikning tovoni — ozodligi, qadri, sha'ni va obro'sini boy berish bilan to'lanar ekan, nega xatoga yo'l qo'yildi? Nima sababdan shiddati eng yovqur shamollarni ortda qoldiradigan bir paytda noto'g'ri hayotni tanladi? Axir u ham kimningdir dilbandi, suykuli farzandi-ku?!**

Yoshlarning bo'sh vaqti —  
yetakchining ish vaqti

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-yanvarda qabul qilingan "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori navqiron avlod vakillari hayotida tub burilish yasadi.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal qilish maqsadida qaror bilan mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Mana, ikki yildan ortiqroq vaqt davomida yetakchilar yoshlarga yaqin do'st, maslahatgo'y va ko'makdosh bo'lib kelmoqda.

Yoshlar yetakchilarining vazifalaridan biri mahalladoshlari, do'stlari, o'rtog'larini to'g'ri yo'lga boshlay olish, ularga ko'maklashishdan iborat. Yilning birinchi choragi yetakchining "Yoshlar balansi"ni qayta shakllantirishidan boshlanadi. Xatlov davomida mahalladagi barcha yoshlarning qiziqishlari, ularni qiyinlab kelayotgan muammolar o'rganilib, hal etish bo'yicha tizim tashkil etiladi. Yoshlar bilan suhbat o'tkazilib, xatlov yakuniga ko'ra, "Yoshlar balansi" shakllantiriladi.

Xatlov jarayonida yoshlar yaratilayotgan imkoniyatlar to'g'risida o'zini qiziqitirgan savollarga javob oladi. Shuningdek, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bandlegini ta'minlash, iqtidorli yoshlarni izlab topish, iste'dodini ro'yogga chiqarish, davlat ko'magiga muhtoj "og'ir" toifadagi yoshlarning hayotida o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, kitobxonlikni keng targ'ib etish, xorijdagi yoshlar bilan aloqa o'rnatish, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlarning muammolarini hal etish kabi qator vazifalar yetakchi faoliyatining muhim yo'nalishlari sanaladi.

Shu qisqa muddat ichida yoshlarimiz hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Yetakchilar mahalladagi tengqurlarining haqiqiy ko'makchisiga aylana oldimi? Ha, ular yosh yigit-qizlar hayotiga dadil kirib bormoqda. Misol uchun, hech chekka qishloq va ovullardagi qobiliyati, iste'dodini yetarlicha namoyon eta olmayotgan o'g'il-qizlarimiz uchun juda katta imkoniyat sanalgan bo'lmaz.

— Ommaviy sport musobaqalarida g'olib va sovrindor bo'lgan jamoalar mahallalarida qariyb mingta sport maydonchasi qurilib, aholining sport bilan shug'ullanish imkoniyatlari yanada kengaytirildi. 2030-yilgacha mahallalarda bunday sport maydonchalari soni 5 mingtaga yetkazilishi ko'zda tutilmoqda, — deydi Sport vazirligi ommaviy sportni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi Sanjar Bekjonov.

Yo'lga qo'yilgan ushbu tizim va yondashuv yoshlarni ommaviy sportdan boshlab professional sportchi sifatida tayyorlashda ijobiy natija bermoqda. Ishitirokchilarni ro'yxatga olish, mahalla jamoalarini shakllantirish, katta marralar sari undashda yoshlar yetakchilarining jonbozligi qo'l kelmoqda.

— "Besh tashabbus olimpiadasi" o'tkazilgunga qadar mahallamiz hududida hech qanday sport maydonchasi bo'lmagan, — deydi Jizzax shahar "Turon" MFY yoshlar yetakchisi Dilshod G'ulomov. — Ushbu olimpiadada ishtirok etgan mahallamiz o'g'il-qizlari shahar, viloyat, respublika bosqichlarida

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning yuqori saviyada tashkil etilishida yetakchilarning o'rni alohida. O'g'il-qizlarimizni madaniyat, san'at, sport, kitobxonlik, axborot texnologiyalari, intellektual o'yin yo'nalishlariga jalb etish, iqtidorlarini kashf etish hamda qo'llab-quvvatlash uchun har bir tengquri bilan suhbat olib borish, ularga mazkur musobaqalarning afzalligi, shaxs kamolotidagi muhim ahamiyatini tushuntirish yetakchi zimmasidagi muhim vazifalardan sanaladi.

— 2023-yilda bir qator muhim yo'nalishlarni o'zida qamrab olgan yigirmadan ortiq tanlov va musobaqalarda 12 millionga yaqin yosh ishtirok etdi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi Shohbek Ergashev. — 1500 dan ortiq yoshlar tanlov va

g'olib bo'ldi. Yoshlar bu muvaffaqiyati bilan mahalla hududida bir emas, beshta zamonaviy sport maydoni qurilishi uchun imtiyozi qo'lga kiritdi. Bu maydonlar ayni paytda mahalla yoshlari ixtiyorida.

2022-yilda Strit vorkaut va stritbol uchun maydonchani qo'lga kiritgan bo'lsak, 2023-yil ham yoshlarimiz uchun omadli keldi. Biz universal sport maydonchasi — basketbol, voleybol maydonchasi va mini stadion yutib oldik. Ayni paytda shahar mahalla viloyat hokimliklari tomonidan katta futbol maydoni qurish ishlari boshlandi.

Mahalla yoshlari sportning barcha turi bo'yicha tengdoshlariga o'rnak bo'lmoqda. Ularning erishayotgan natijalari o'z samarasini berayotir. Mahallada jinoyatchilik soni keskin kamaydi. 2022-yil 5 nafar yosh jinoyat sodir etgan bo'lsa, 2023-yilda bir nafarni tashkil qildi.

Yoshlar bandlegini ta'minlashda ham e'tiborga molik ishlar bajarilayapti. Tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun 33 yigit-qizga qariyb 900 million so'mlik imtiyozi kredit ajratildi va bandlegini ta'minlandi, 50 nafari esa kasb-hunariga o'qitildi.

"Yoshlarning bo'sh vaqti — yetakchining ish vaqti" tamoyilini o'ziga shior qilib olgan mahalla yoshlar yetakchisi tengqurlarining hayotda o'z o'rnini topishi uchun kuch-g'ayratini ayamayapti.

Dilafro'z mamnun:  
ham farzandini davoladi,  
ham ishli bo'lib,  
daromad topyapti

Hech kim farzandi xastaligi bilan sinalmasin ekan. Ammo dard so'rab o'tirmaydi. U katta yoki kichik demaydi, inson boshiga og'ir sinov bo'lib tushaveradi. Andijonlik Dilafro'z Sobirovni ham shu sinov chetlab o'tmadi. O'g'li Muhammadumar tug'ma buyrak kasalligi bilan og'rigan. Bolakay hozir uch yarim yoshda, 2-guruh nogironi.

"Kasal kasal emas, kasal boqqan kasal", deyishadi. Dilafro'z o'g'li parvarishi bilan andarmon. Ro'zg'ordan, boladan ortib, biror jodda ishlay olmaydi. Oilaning moddiy ta'minoti haminqadar, ayniqsa, o'g'lining davolanishi va parvarishi uchun sarflanadigan mablag' Dilafro'zni ancha tiliqtirib qo'ygandi.

Darvozaning ohista taqillashi chorasizlikdan ezilib o'tirgan Dilafro'zning xayollarini to'z'g'itib yubordi. O'zini Andijon shahar Shodlik mahallasi yoshlar yetakchisi deb tanishtirgan yigit Dilafro'zning oilaviy ahvoli bilan qiziqqa boshladi. Ijtimoiy muhtoj bo' o'lgan ko'mak ko'rsatish maqsadida darhol hujjatlarini to'plab, tuman "Yoshlar daftari" vasiylik kengashiga yordam olish uchun tavsiya berdi. Nihoyat, yorug' kunlarning daragi chiqadigan, hayot tashvishlaridan toliqqan bu ayolning dardiga malham bo'ladigan topildi. Mahalla yetakchisi tavsiyasiga ko'ra, unga tuman hokimligidan moddiy ko'mak ko'rsatildi. Dilafro'z ana shu ko'mak asosida farzandini ikki marta operatsiya qildirdi. Murakkab jarrohlik amaliyoti uchun talab etilgan barcha mablag' qoplab berildi.

Dilafro'z shu bilan cheklanib qolmadi. Yoshlar yetakchisi Eldorбек Yunusov ko'magi bilan Andijon shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida tikuvchilikka o'qidi. Unga tikuv mashinasi berildi. Ayni paytda uydagi zamonaviy pardalar tikib, ro'zg'origa daromad olib kiriyapti. — Jarrohlik amaliyoti va muolajalar o'z samarasini berdi. Farzandimning sog'lig'i tobora tiklanib boryapti, — deydi D.Sobirova. — O'zim ham tikuvchilikka o'qib, hunarim ortidan pul topishga kirishdim. Bu oilamga madad bo'lyapti. Holimizdan xabar olgan va o'nglanishimizga ko'mak bergan yoshlar yetakchisiga rahmat.

"Bir ijobiy fikr tufayli men o'z  
kelajagimni tanladim"

Talabalik — oltin davr. Bu davrning shiddatli, sururli damlari kishi qalbini



hayotga to'ldiradi, ilm olish yo'lidagi urinish va izlanishlar insonni kamolga yetkazadi. Bir kasbning yetuk mutaxassisi bo'lish, shu orqali jamiyatga, yurtga naf keltirish, umr atalmish ne'matni mazmunli va samarali o'tkazishga poydevor aynan talabalik paytida qo'yiladi. Biroq ana shu baxt hammaga ham nasib qilavermaydi.

— Endigina mahalla yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat boshlab, "Yoshlar balansi"ni shakllantirish maqsadida xonadonma-xonadon yurib yoshlarning o'y-fikrlarini o'rganar ekanmiz, og'ir xastalikka duchor bo'lgan Shohjahon ismli yigitning uyiga bordik, — deya gap boshladi Olmazor tumanidagi Eski shahar mahallasi yoshlar yetakchisi Saidabzal Islomov. — Bu yigitga uzoq yillardan buyon jarrohlik yordami zarur ekanini bildik. Qolaversa, oilaning ijtimoiy ahvoli tang edi.


Shohjahonning hujjatlarini to'plab, tuman "Yoshlar daftari" vasiylik kengashiga yordam olish uchun tavsiya qildik. Tez orada u "Yoshlar daftari" orqali ko'mak olib, jarrohlik amaliyotini o'tkazish uchun shifoxonaga yotqizildi...

Kuni kecha Shohjahonni ko'chada uchratib qoldim: o'zida yo'q xursand, maktabni tamomlab, mamlakatimizdagi nufuzli oliyog'ha qabul qilinibdi. Bu xabarini eshitgach, ich-ichimdan quvonib ketdim va mahallada yoshlar yetakchisi vazifasida faoliyat yuritib kelayotganimdan juda faxrlandim.

Yoshlar qanchalik bilimli, kasb-hunarli bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti shuncha taraqqiy etadi. Bu borada yetakchilar yoshlarga yaqin do'st, maslahatgo'y va ko'makdosh bo'lmoqda.

O'tgan yili yoshlar yetakchilarining maktab bitiruvchilari bilan o'tkazgan profilaktik subhatalari ham o'z samarasini berdi. Jumladan, Olmazor tumanidagi Chilto'g'on mahallasida istiqomat qiluvchi 38 nafar maktab bitiruvchisi hayotda o'z o'rnini topdi.

— Oliy ta'lim muassasasiga kirishni bir umr orzu qilgandim, lekin shartnoma asosida o'qishga qabul qilinsam, to'lovni qanday amalga oshiraman, degan savol meni qiynardi, — deydi mahalla yoshlaridan biri, Toshkent xalqaro oliyoyat boshqaruv va texnologiyalar universiteti talabasi Faxriddin Tohirov. — O'quv yili tugashiga yaqin mahallamiz yoshlar yetakchisi maktabimizga kelib, har birimiz bilan alohida suhbatlashdi. Maktabni tamomlaganimizdan so'ng nima ish qilishimiz, qanday orzularimiz borligi haqida so'radi.



Men ularga oilaviy sharoitini tushuntirib, hali hayot yo'limga tanlay olmaganimni aytdim. Shunda puxta tayyorlanib, oliy o'quv yurtiga hujjat topshirishimni, agar shartnoma asosida o'qishga qabul qilinsam, to'lovning 50 foizgacha bo'lgan qismi "Yoshlar daftari" orqali qoplab berilishi mumkinligini tushuntirdi. Mana, bugun nufuzli oliyog'hlardan biriga qabul qilindim. Yetakchimiz o'z va'asida turib, shartnoma summamasining bir qismini qoplashda ko'mak ko'rsatdi. Bir ijobiy fikr insonni qay darajada ruhlantirib yuborishini, hatto kelajagi uchun to'g'ri tanlov qabul qilishida juda muhim ekanini o'z hayotimda ko'rdim. Bundan juda mamnunman.

Bugungi kunda Chilto'g'on mahallasida Faxriddin singari yetti nafar yoshning shartnoma to'lovining bir qismi qoplab berildi. Oliy ta'limda o'qishni davom ettirish imkoni bo'lmagan o'n ikki bitiruvchi yoshning bandlegini ta'minlab, doimiy ishga joylashtirildi.

Yoshlarning orzu-istaklarini mahalladagi yoshlar yetakchisi yaxshiroq biladi. Qaysi mahallada yoshlar yetakchisi o'z nomiga

yarasha boshqalari o'z ortidan ergashira olsa, o'sha mahallada noxush holatlar kam, hudud tinch va farovon bo'ladi.

Yurt osoyishtaligi,  
el xotirjamligi oiladan,  
mahalladan boshlanadi

Shu zamin farzandi ekanidan iftixor tuygan yigit-qiz uchun vatanning har bir qarich yeri muqaddas. Jasorati, g'ururi va ori baland inson o'z vatanning daxlsizligi, osoyishtaligini asrashni zimmasidagi burch deb biladi.

Umumta'lim maktablarining "Vatan yanchi" bo'limlari o'rtasida o'tkazilayotgan "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqasi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizning chekka va chegaralari hududlaridagi maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan yana bir bellashuv — "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining yuqori saviyada o'tkazilishida yetakchilarning hissasi katta bo'layotir.

Bir qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan ushbu musobaqa an'anaga aylanib, o'tgan yillar davomida jami 370 mingdan ortiq o'quvchi qabul etildi. Bundan tashqari, ayni vaqtda "Yosh chegarachilar" klubi a'zolarining 162 nafari Chegara qo'shinlarida, 37 nafari esa boshqa idoralarda turli lavozimlarda xizmat qilib kelayotgani bu borada amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar salmog'ini ko'rsatadi.

"Mahalla yetiligi"  
har bir muammoni yechishga  
harakat qilyapti

Mahalladagi islohotlar nafasini sezmagani o'z qolmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda barmaslahat amalga oshirilmoqda. Bunda mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq idorasi vakili va ijtimoiy xodim qatori yoshlar yetakchisining xizmati ham katta bo'lmoqda.

— Yoshlar yetakchilari lavozimi joriy etilishi ko'plab muammolarni mahallaning o'zida yechim topishiga sabab bo'ldi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi bo'lim boshlig'i





## Men nechun sevaman O'zbekistonni!



“She'r yodlash, avvalo, zehnni, xotirani mustahkamlaydi, qolaversa, qalbingizdagi sizga kuch va ilhom berib turuvchi, qaddingizni rost qiluvchi qo'rg'onni tiklaydi. Endi bilsam, o'sha qo'rg'on Vatan ekan.

## NOMUS, VIJDON ILA IYMONDIR — VATAN!

## Boshlanishi 1-betda

Adabiy-ma'rifiy anjumani doirasida “Vatanparvar” tashkiloti Toshkent shahar kengashi tizimidagi sport seksiyalarining ko'rgazmasi ham tashkil etildi. Unda yoshlar o'z qo'llari bilan yasagan raketalar, pnevmatik qurol turli namoyish qilinayotgani ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Ayni ko'rgazmani tomosha qilayotib yosh harbiylar bilan mushoirani boshlab yuborgan O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir bugungi anjuman avvalidagi hayajonini shunday ifodaladi:

— Bu dunyoda inson zoti uchun ona qanchalar sharaflari, ulug' bo'lsa, kindik qoni tomgan maskan ham undan aslo kam emas. Zero, biz inson sifatida o'zimizni Vatanda taniymiz, Vatanda anglaymiz. Qadamimiz yurt tuprog'ida ekan, qadimimiz tik, boshimiz mag'rur. O'zbekistondan yurgan farzand bo'lish millati, e'tiqodidan qat'i nazar, har birimizga sharaflidir. Prezidentimiz toshirig'iga ko'ra tashkil etilgan “Vatan manzumi” adabiy-ma'rifiy anjumani qisqa vaqtda barcha yurtdoshlarimiz qalbinu zabt etdi. Ayniqsa, bu ijodiy loyiha ishtirokchilarining viloyatlar bo'yab qilgan safarlari katta e'tiroflarga sabab bo'ldi. Yoshlar bilan suhbatlashib, navqiron avlodimizning adabiyotga, she'riyatga ishtiyoiqiy yanada oshganiga guvoh bo'ldik. Ularning bu ishtiyoiqiy, mehr-muhabbati yanada yuksalaversin. O'zbekistonimiz sharaflini dunyo uzra tarannum etgan Amir Temur, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi ajdodlarimizning izdoshlari ko'payversin!

Tadbir avvalida sahna yorishib, ekranda ona Vatanimiz himoyasi, tinchligi uchun aziz

jonini fido qilgan yurt o'g'lonlarining hayoti, shonli xizmat yo'llari aks etgan lavhalar namoyish qilina boshladi. Shu lahzalarda qulog'imiz ostida ulug' qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning o'sha mashhur asaridagi Nayman onaning manqurt o'g'liga qilgan faryodi eshitilganday bo'ldi: “Kimning farzandisan, eslab ko'r! Oting nima? Oting Jo'lomon! Otangning oti Do'naboy! Do'naboy! Do'naboy!...”. Darhaqiqat, otalarimizning kim ekani, ularning qanday ulug'vor ishlarni amalga oshirgani biz farzandlarga doimo g'urur bag'ishlab, o'zligimizni anglashimizda yordam bergan.

— Otam podpolkovnik Ulug'bek Jalolov xizmat vazifasini bajarayotgan chog'ida halok bo'lgan. Men u paytlar yosh bola edim, — deydi Nazarbek Sa'dullayev. — Biroq shunday bo'lsa-da, Vatan osoyishtaligi yo'lida shirin jonini fido qilgan inson ekanidan juda faxrlangan edim. Garchi ko'p vaqti ishda,

xizmatda o'tsa-da, men bilan suhbatlashishga har doim vaqt topar, “O'g'lim, er yigiti uchun dunyodagi eng sharafli ish Vatanni himoya qilishdir”, deya tayinlar edi. Bugun men otamning ishini davom ettirayotganimdan o'zgacha g'urur-iftixor tuyaman.

Sevara Normatovaning otasi Ibrohim Normatov terrorchilarga qarshi jangovar harakatlarda qahramonlarcha halok bo'lgan. O'sha paytlarda Sevara besh yoshlik qizaloq edi. U har gal otasining jasorati haqida dugonalarga so'zlab berar ekan, g'ururlanar va “Men ham kelajakda, albatta, otam kabi Vatanimni himoya qiladigan inson bo'laman”, der edi. Onasi har qancha qarshilik ko'rsatmasin, u ahddan qaytmadi, harbiy o'zbek ayollari safidan joy oldi.

Eng qaltis vaziyatlarda o'z jonini xatarga qo'yib, Vatan himoyasiga otlangan yurtdoshlarimizni madh etuvchi qo'shiq yangray boshlashi bilan barcha



berib turuvchi, qaddingizni rost qiluvchi qo'rg'onni tiklaydi. Endi bilsam, o'sha qo'rg'on Vatan ekan. Hozirgina yoshlarimiz Halima Xudoyberdiyevaning “O'stir Xudo degan shu mamlakatni” she'rini o'qiganida to'liqlanib ketdim. Shunday ajoyib tadbirlar tez-tez o'tkazilib tursa, yaxshi bo'lar ekan.

Biz yosh zamonoshlarimizning tadbir haqidagi mulohazalari bilan ham qiziqdik.

— She'rni shoirning o'zidan eshitish boshqacha bo'lar ekan, o'sha ruhiyatga tushgandek bo'larsan, — deydi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy musiqa akademiyasi 2-bosqich kursanti Norbek Matlubov. — Ochig'i, taklif qilishganida avvaliga yana tadbirni, degan fikr xayolimdan o'tgan edi. Hozir buning uchun xijolatdaman. Ko'plab tengdoshlarimiz o'zini telefon bilan band qilishga o'rganib qoldi. Telefon deganlari o'zini anglaganga bitmas xazina, o'zini bilmaganga esa katta bir ofatdir. Men bu narsani keyingi paytlarda chuqurroq anglay boshladim. Biz, yoshlar ko'proq vaqtimizni kitob o'qishga, she'r yodlashga, telefonda o'tirsak ham kerakli ma'lumotlar olishga sarflasak, yaxshi bo'lardi. Bugun o'qilgan she'rilar yuragimizni to'liqlantirib yubordi, ruhimizga zo'r ko'tarinkilik bag'ishladi, Vatandan iftixor tuyushni o'rgatdi. (Shu o'rinda u “Ko'ryapsizmi, men ham shoir bo'lib ketaman, shekilli”, deya kuladi). Men bunday she'rilar borligini bilmas ekanman...

So'zimiz avvalida Abdurauf Fitratning “Yurt qayg'usi” maqolasi eslagan edik. Tadbir ishtirokchilari bilan suhbatlashar ekanmiz, ularning yuz-ko'zlaridagi hayajon, so'zlaridagi haroratni his qilib, yana jaded bobomizning “Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir? Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?” degan misralarini yodga oldik.

Demak, nomus, vijdon ila imonimiz Vatan deb atalgan muqaddas qo'rg'onning ustunlaridir. Ramazon oyining bahor yomg'iriga tutash lahzalarida o'tkazilgan bu tadbir ayni haqiqatlar bilan ko'nglimizga kirib borgan go'zal anjuman bo'ldi. Bir-biriga intilgan, bir-birini anglagan qalblar anjumani esa tilaklar va ezuq maqsadlarni ham birlashtirgusidir!

Muxtasar TOJIMAMATOVA,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlar.

USHBU QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.

Yoshlar bilan suhbatlashib, navqiron avlodimizning adabiyotga, she'riyatga ishtiyoiqiy yanada oshganiga guvoh bo'ldik. Ularning bu ishtiyoiqiy, mehr-muhabbati yanada yuksalaversin. O'zbekistonimiz sharaflini dunyo uzra tarannum etgan Amir Temur, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi ajdodlarimizning izdoshlari ko'payversin!

ishtirokchilar mard o'g'lonlar xotirasi uchun o'rinaridan turib, ko'zlarida yosh bilan tingladi.

...Hazorispand bo'lsam sahrolaringda,  
Feruza tosh bo'lsam daryolaringda,  
Hayit oyi bo'lsam samolaringda,  
Mehruvafu — ko'rar dunyolaringda,  
Seni yomon ko'zdan asramoq uchun!  
Faqat sen ko'zimga boqib tur, Vatan,  
Onamday yelkamga qoqib tur, Vatan,  
Qalbidam daryoday oqib tur, Vatan,  
Boshimda Humoday balqib tur, Vatan,  
Meni gumon so'zdan asramoq uchun!  
Seni yomon ko'zdan asramoq uchun!

O'zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyevaning o'tlig' chorlari, Qutlibeka Rahimboyeva, Xosiyat Bobomurodova, Gavhar Ibodullayeva, Hayotxon Ortiqboyevaning jasorat va mehr-oqibatga to'la misralari yosh ijodkorlar tomonidan o'qilganida sog'inch sig'magan qalblar tafti bosilgandek bo'ldi go'yo...

— O'yab ko'rsam, ilgari nafaqat shoirilar, balki boshqa kasb egalari ham tez-tez mushoiraga qilib turardi, — deydi yonimda o'tirgan Muayassar Hamroqulova. — Shu bois, shifokor bo'lsam-da, men ham ko'p she'rnlarni yod bilardim. She'r yodlash, avvalo, zehnni, xotirani mustahkamlaydi, qolaversa, qalbingizdagi sizga kuch va ilhom



## Uyg'oq fikr

Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

## YURT VA MILLAT QAYG'USI O'ZLIKKA SADOQATDAN KUCH OLADI

Vatanparvarlik insonni yuksaltiruvchi, kuch-quvvat baxsh etuvchi buyuk fazilat. Ichki tug'yon, qalb ovozi bilan “Turonim, sendan ayrilmoq — mening uchun o'limim, sening uchun o'lmoq — mening tirikligimdir” deb yozgan edi Fitrat. Vatanparvarlik insonning avlod-ajdodlariga, or-nomusiga, millatiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga sodiqligidir. Yana inson siyratiga qo'shib yaratilgan oliy tuyg'uki, u o'zlikka sadoqatdan kuch oladi, yuksaladi.

Bahodirjon  
SHERMUHAMMADOV,  
pedagogika fanlari doktori,  
professor



Bugun marrani baland olgan xalqimiz shunday olijanoib tuyg'ular bilan yorug' manzillarga intilmoqda. Amalg oshirilayotgan har bir ezuq ish aynan Vatanga daxldorlik, o'z taqdirini yurt taqdiri bilan bir butun deb bilgan yurtdoshlarimiz ko'nglidan quvvat olmoqda. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz “Elga qo'shul'gon esh topti” deb yozganida aynan shu haqiqatni madh etgan bo'lsa, ne ajab.

Keyingi yillarda mamlakatimizdagi yangilanishlar va taraqqiyot shiddatidan dunyo hayratlanayotgani, jahon maydonida yangi O'zbekiston degan davlat mustahkam maqomga ega bo'lgani bor gap. Barcha soha va tarmoqlar islohotga yuz tutdi. Eng muhimi, odamlar tafakkuri o'zgardi, hayotga muhabbati oshdi, bugunidan rozilik, ertangi farovon hayotiga yuksak umid uyg'ondi. Davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini anglab yetgan yurtdoshlarimiz esa ana shu ezuq ishlarga hissa qo'shish ishtiyoiqiy bilan yashamoqda, el yumushiga yeng shimarmoqda. Buning zamirida chinakam vatanparvarlik borligi yaqqol ayondir. Bu ulug'vor tuyg'u ona tuprog' himoyasi, uning sha'nu shavkati yo'lida o'z manfaatini chetga surib, umumanfaat uchun nimadir uddalay olish, el-yurt uchun beta'ma va beminmat yaxshilik qilishga qodir bo'lishiga emas, shirin jonini fido qilish, degani emasmi?!

O'quvchilariga atab sinfga kitob tashiyotgan o'qituvchi, tunda chaqirsangiz ham hozir bo'layotgan shifokor, mijja qoqmay

baxshida bo'lgan zotlarning milliy o'zlikka muhabbati va sadoqati bizga o'timish ibratidir. Aynan yangicha qarashlari, vatanparvarligi uchun beayov tazyiqqa uchragan, olis Sibir o'lkasida Vatan deya qon yutgan Usmon Nosimi, ma'rifatsizlik va adolatsizlikka qarshi ruhiy isyon ko'tara olgan Abdulla Qodiriyni uyg'otgan, ularning nomini mangu ardoqli qilgan qadriyat ham vatanparvarlik edi.

Ana shu Vatan tuyg'usi tufayli inson o'zi yashaydigan uyni, o'zi yashaydigan mahallani, shaharu qishloqni, Vatanni sevadi, uni obod qiladi, uning sha'nini ulug'laydi, himoya qiladi.

Bugun yangi O'zbekistonning yangi davrini yaratayotgan ekanmiz, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga vatanparvarlik tuyg'usini singdirish, unga munosib farzand bo'lishni oliy maqsad deb bilgan yuksak salohiyatli, asl yurtsevar avlodni, buyuk ajdodlar davomchilarini tarbiyalash — ulug'vor



sarhadlarimizni qo'riqlayotgan askar, hasharda yeng shimargan mahalladosh, saharda tandardan non uzayotgan novvoy — barchasi vatanparvarlikning eng o'zal chizgilaridir. Mamlakatga, fuqarolikka, milliy tilga, an'ana va urf-odatlarga xos bo'lgan hissiy munosabat, Vatan g'ururi, uning qudrati, muvaffaqiyati, madaniyati bilan faxrlanish, tarixi, nufuzi, an'alarini saqlab qolishga intilish ham jadedlikning bir ko'rinishidir. Aynan shu ulug'vor tuyg'u qudratidan xalq bir butun, bir tan-u bir jon bo'ladi. Demak, Vatan siz-u men — bizdan boshlanadi.

Tarixga nazar tashlasak, bugungi yosh avlod uchun chinakam vatanparvarlik timsoliga aylangan siymolar hayoti, ularning Vatan va el sha'ni, qudrati, tinchligi, ma'rifati, ma'naviyati yo'lida ko'rsatgan ulkan fidoyiliklari xotiramizda qayta-qayta jonlanadi. Buyuk bobolarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Mirzo Bobur, ma'rifatparvar jadedlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy timsolida Vatan uchun shirin joni, bilim va salohiyati

ahdimiz. Bu esa faqat ta'lim muassasasida emas, balki oilada, mahallada, butun jamiyat ichida ado etiladigan olibanon vazifa.

Ayni paytda birgina Farg'ona davlat universitetida yuzdan ortiq jahon chempionlari, xalqaro tanlov va ilmiy anjumanlar sovrindori bo'lgan lider yoshlar Vatan berayotgan imkoniyat va e'tiborga o'z fuqarolik pozitsiyasi, sog'lom tafakkuri, ilmfan, sport, san'at, ijodda erishayotgan yutuqlari bilan javob qaytarmoqda. Bu ona yurt oldidagi sharaflari mas'uliyatni his etish, demakdir.

Biz Vatan bayrog'ini baland tutgan o'g'lonlar, yurt tinchligi uchun jon fido qilgan bahodirlar, xalqning ma'naviyati va ma'rifati rivojiga paypasta bo'lgan fidoyilardan kuch olamiz.

Anglashiladiki, vatanparvar xalq, yurtsevar avlod o'z-o'zidan shakllanmaydi. Qonida qayotgan bobomeros xislatlar bilan birga bugungi milliy-ma'naviy tarbiya, namuna va ibrat ularni kamolga yetkazadi. Zotan, O'zbekistonning yangi davrini ham ana shunday vatanparvarlar yaratayotgani ayni haqiqatdir.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 784.  
44909 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Abdurauf Qorjovov  
Musahhir: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy